



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

***MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI  
IV- BOSQICH402 GURUX TALABASI  
URAIMOVA ELMIRANING***

**“Musiq a darslarida o'quvchilarni milliy an'analar ruhida  
tarbiyalash metodlari” mavzusida**

5111100-musiq a ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish  
uchun yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**M.Nasriddinov**

**Andijon – 2017 yil**

# **MAVZU: Musiqa darslarida o'quvchilarni milliy an'analar ruhida tarbiyalash metodlari**

## **Kirish**

### **I BOB. O'quvchilarda milliy an'analarni o'zlashtirishga bo'lgan zaruriyat**

#### **1.1. Musiqa madaniyati darslarida milliy-manaviy ehtiyojlarni aniqlash**

#### **1.2. Musiqa orqali milliy-axlokiy fazilatlarni shakllantirish**

#### **1.3. Musiqaning inson va jamiyatdagi ahamiyati**

### **II. BOB. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning nazariy- falsafiy masalalari**

#### **2.1. "Qadriyat", "milliy qadriyat" va "umuminsoniy qadriyat" tushunchalarining nazariy-falsafiy tahlili**

#### **2.2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida**

#### **2.3 Umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar hayotidagi ahamiyati. (Xofizlik odobi misolida)**

## **Xulosa**

## **Foydalangan adabiyotlar**

## **Ilova**

## KIRISH

Buyuk mustaqilligimiz tufayli milliy ma'naviyat va ma'rifat yangidan ko'z ochayotgan bir davrda mafkuramizni rivojlantirishda Xalqimizning umrboqiy san'at tarixini keng yoritish musiqa merosimizni o'rganish va uni san'atsevar Xalqimizga yetkazish muxim o'rin tutadi.

Ayniqsa, bu davrda o'lmas merosimiz ustozdan shogirdga o'tib kelgan Xalq an'anaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. Xalqimizning bebaho boyligi musiqa merosimiz o'zining boy tarixiga ega bo'lib davr o'tgani sari uni o'rganishga extiyoj tobora ortib bormoqda. Bizga ma'lumki milliy istiqlol mafkurasini Xalqimiz qalbi va ongiga singdirishda musiqiy merosimizni o'rganish milliy qadriyatlarimizni mustaxkamlash va rivojlantirishning o'rni katta. Mustaqil O'zbekiston o'ziga xos va o'ziga mos istiqlol va taraqqiyot yo'lidan borayotgan xozirgi davrda totalitar tuzumdan meros bo'lib qolgan ma'naviy inqirozga xotima berish, kishilarning ongi va dunyoqarashida yangicha tafakkur madaniyati shakllantirish kechiktirib bo'lmaydigan ijtimoiy vazifadir. Tarix tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'zi mansub bo'lgan Xalq tarixini, uning madaniyati, an'analari, urf-odatlarini, tafakkur tarzini bilmagan kishi o'zini anglay olmaydi. O'zligini anglamagan insonda milliy oriyat va g'urur bo'lmaydi. Milliy g'ururi bo'lmagan inson tobelikka moyil bo'ladi. Mustaqil O'zbekistonimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham kora daxshatlidir»

Abdulla Avloniy shunday deb yozadi «Aql insonlarning piri komili, xurshidi yagonasidir. Rux ishlovchi, aql boshlovchidir». Ulardan biri: «Agar aqlning quli nafsingni jilovini ushlasa, uni yomon yo'llardan saqlar. Har narsa ko'p bo'lsa bahosi arzon bo'lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmat baho bo'lur dermish». Shuning uchun ham aql-zakovat ma'naviyat asosi hisoblanadi.

Yoshlar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yangilanishining muxim sube'ktlaridan bo'lib, turmushida ro'y berayotgan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi va taraqqiyotni harakatga keltirishda muxim rol

o'ynaydi. Mamlakatimizning ertangi kuni qanday bo'lishi yoshlarning har tomonlama salohiyati va yetukligiga bog'liq. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, yosh avlod madaniyatimiz va ma'naviyatimizni, taraqqiyotining intellektual kadariyatlarini kelajak jamiyat a'zolarining ongiga yetkazadi.

Yoshlar bunday ma'suliyatli vazifani bajarishlari va ularning erkin rivojlanishi ijodiy bunyodkorlik faoliyatiga qulay imkoniyatlar yaratib berish uchun O'zbekistonda katta amaliy ishlar qilinayapti.

Yoshlarning aqliy qobiliyatlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqarish muammosi – ularni ma'naviy kamol toptirish, mehnat faoliyatida shaxsiy ijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtirish, Vatan taraqqiyoti ehtiyojlarini anglab yashash, mehnat qilishga o'rgatish bizning aniq va muxim vazifamizdar. Xalqimizda yaxshi naql bor: «Aql orzusi – bilim» degan. Aqliy faoliyatga qobiliyatli bo'lgan, aqliy ist'dod bilan boshqalardan ajralib turadigan ayrim yoshlarni maxsus tafakkur metodlariga o'rgatish ham juda muxim ahamiyatga ega. Yangi zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini zukko, oliy tafakkur xislatlariga ega bo'lgan yoshlarimizsiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababli oliy o'quv yurtlarida, yoshlar tashkilotlarida, o'rta maxsus va umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari orasida ilmiy tafakkur talab qiladigan, uning xislatlarini rivojlantiradigan, takomillashtiradigan maxsus mashg'ulotlar olib borish va shu sohani yaxshi o'zlashtirgan mutaxassislar tayyorlash barcha o'quv muassasalarida ommaviy ravishda olib borilishi lozim.

Ijod kishiga ko'tarinki rux bag'ishlaydi, bilim jarayonining o'zi kishini yuksaklikka yetaklaydi. Sidqidildan berilib, u yoki bu narsani, voqeyelikni o'rganayotgan kishi o'zini yengil xis etadi, qanotlarini keng yozib, baland osmonda parvoz etayotgandek xis etadi. chunki u o'tgan daholar bilan xayolan so'zlashadi, munozara qiladi. Bunday kishilar o'z bilimlariga, aqliy imkoniyatlariga ishonadilar, topshirilgan vazifalarni yengil va qoyil qilib bajaradilar, tez fursatda el orasida o'zlarining zukkoliklari, ish ko'zini bilishlari bilan tanilib qoladilar. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek «Ma'naviyat insonning, Xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-kudratidar. U yo'q joyda xech

qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Ma'naviyat kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy badiiy, ahloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir. Ma'naviyat - mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqazo etadilar. Ma'naviyat insonning butun umri davomida uning kuchiga kuch qo'shadigan aql idroki zakovatini kengaytiradigan va mustahkamlaydigan vositadir. Ma'naviyatimiz - O'zbekistonning porloq kelajagiga dadil ishonch bilan borayotganligi, Xalqimizda yuksak insorparvarlik qadriyatlari tiklanayotganligi va takomillashayotganligini ifodalovchi o'ziga xos dunyoqarashidir. O'zbekistonning kelajakda buyuk davlatga aylanishi, mustaqilligimizning taqdiri, milliy istiqbolimizning taqdiri - milliy istiqbolimiz posbonlari bo'lgan yosh avlodlarimizning kuch-g'ayratli, aql-idrokli, yetuk, bilimdon, amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishiga aqliy, jismoniy, ma'naviy-madaniy kamolatga erishuviga bog'liqdir. Yoshlar-vatanimiz, millatimiz kelajagidir. Ular o'z zimmlariga yuklanayotgan mas'uliyatni anglab yetishlari, chuqur xis qilishlari, unga munosib bo'lishlari shart. Mustaqil O'zbekistonimizning birinchi Prezidenti Vatan manfaatini mustaqillik manfaatini hamma narsadan yuqori qo'yadigan, qalbida o'ti va erk tuyg'usi jo'shib turgan, g'ayratli bilimdon yosh kadrlar tayyorlashga aloxida e'tibor berib kelayotganligi, ularga katta umid va ishonch bilan qarashi, qo'llab-quvvatlashi bejiz emas. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlaridagi bebaho nazariy qoidalar, dastur, yo'l-yo'riqlar, Xalqimizning, ayniqsa yosh avlodning g'oyaviy, siyosiy, ma'naviy ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirish va faollashtirishda ahamiyati katta bo'lgan donishmandlik namunasi. Ota-bobolarimiz bizga qoldirgan boy ilmiy meros, kelajak avlodning tafakkur, dunyoqarashini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirib, ularning bunyodkorlik faolligini oshirishda mustaqillik poydevorini mustahkamlashning asosiy garovidir. "Xalqning ma'naviyati va madaniyati uning, haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi - deb yozadi birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov qayta tiklanayotganligi, jamiyati uni yangilash va tarakkiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda xal qiluvchi,

ta'bir joiz bo'lsa belgilovchi ahamiyatga egadir 1. Xalqimizning buyuk farzandlari jahon madaniyatiga aql bovar qilmaydigan darajada ta'sir ko'rsatgan. Birgina Farobiyning 160 dan ortiq asarlari jumlasiga «She'r san'ati», «Shoirlarning she'r yozishi to'g'risida», «Musiqqa haqida so'z», «Ohanglar tasnifi haqida kitob» kiradi. Farobiy barcha insonlarni baxtga erishish uchun hamkorlikka chaqiradi.

Uning fikricha har qanday inson kamolatga erishuvida boshqalarning ko'maklashuvlariga va ular bilan birlashishga muxtoj yoki majburdirlar.

### ***Mavzuning dolzarbligi.***

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati oldida o'zining yuksak potensial imkoniyatlarini namoyon qila boshladi. Xalqaro arenada teng huquqli davlatlar O'zbekiston o'zining tarixan boy, sharqona betakror an'analar va madaniyatga ega bo'lgan mamlakat ekanligini birin-ketin tan ola boshladilar.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov iqtisodiy isloxlarning yangi davriga xos vazifalarini belgilab berar ekan, u shunday deydi: «Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jixatdan yetuk odamlar xal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnikani egallash ijtimoiy ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga erishish kerak, aql zakovat va ruxiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir».

Ma'naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning eng asosiy masalalaridan birga aylanib borayotgan xozirgi Xalq urf-odatlarini tiklash avlodini milliy an'alarimiz ruxida tarbiyalash o'z dolzarbligi bilan yechimini topishi zarur bo'lgan birinchi darajali vazifa hisoblanadi. Xalqimizning qadimiy ma'naviy bisoti xilma-xil shaklda turli qadimiy arxitektura yodgorliklari, xaykallar, rasmlar, an'anaviy urf-odatlar va boshqa tarzda avloddan avlodga o'tib kelgan.

Ajdodlarimizdan estalik bo'lib qolgan xalq og'zaki ijodiyoti va Xalq qo'shiqlari shunday ma'naviy bisotimizning bir qismini tashkil etadi. Yosh avlodga milliy rux, bag'ishlaydigan bu ulkan me'rosning salmoqli bir bo'lagini Xalq qo'shiqlari tashkil qiladi. Xalqimizning milliy ruxiyatini o'ziga singdirgan va yosh avlodning ilmiga milliy an'analari ruxini olib kiradigan bu hofizlar ijro etgan

---

<sup>1</sup> И.Каримов. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир III том Т. Ўзбекистон 1996 й 274-бет

Qo'shiqlarni yoshlar tarbiyasiga tadbiq etish ko'p jihatdan mukammal o'rganilgan emas. Bu esa, shu sohaning mutaxassisi bo'lgan o'qituvchi ustozlarga katta ma'suliyat yuklaydi. Bo'lajak ustozlar, xususan musiqa kulliyoti bakalavrlari Xalq hofizlari tomonidan ijro etilgan Xalq qo'shiqlari o'rta va oliy musiqa o'quv yurtlarida o'tgan o'n yillar davomida mukammal o'rganib kelmokda. Yangi standartlar asosida tuzilgan o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklarda bakalavrlarga o'tgan Farg'ona vodiysi hofizlari hayoti va ular ijro etgan Xalq qo'shiqlarini o'rganish ularning ongiga milliy ruxni singdirish uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlar yaratib berilgan. Olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz, kuzatuvchilar va tajibalarimiz bakalavrlarga Xalq qo'shiqlarini o'rganish respublikamiz institut va universitetlarning musiqa kulliyotlarida ma'lum darajada yo'lga quyilganligidan dalolat beradi.

Ammo ustozlarning bu sohada orttirgan tajribalar yig'indisi yetarlicha umumlashtirilmagan milliy urf-odatlar va an'analarning tub mazmuniga borib yetmaslik, Xalq psixologiyasi, uning tarixiy yashash tarzi, milliy qo'shiqchilik an'analari va Xalq musiqasining o'ziga xos xususiyatlarini bilmaslik, uning asosiy tomiridan yashash manbasidan ajratib ko'yishga olib kelishi tabiiy, xatarli bir holdir.

Bugungi kunda yoshlarga shunday ilmiy-amaliy yo'llanmalar berish kerakki, bu ularning o'zlarini takomillashtirishlari, ma'naviy o'sishlari, hayot yo'llarini tanlashda masuliyatli qarorlar qabul qilishda ko'maklasha olish kerak.

## **I.BOB. O‘quvchilarda milliy ananalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan zaruriyat.**

### **1.1. Musiqa madaniyati darslarida milliy-ma'naviy ehtiyojlarni aniqlash.**

Jamiyat hayoti va talim soxasida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar o‘quvchi shaxsining milliy – manaviy kadriyatlarni egallash ehtiyojlarini aniqlash va uni qondirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Ma'naviy qadriyatlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan zarurat va talabni qaror toptirish lozim. Ular o‘z faoliyatlarida milliy – manaviy qadriyatlarga nisbatan zaruriyat va muxtojlikri his etishlari kerak. Shu zarurat tufayli ham 5-9 sinf uquvchilirining o‘z-o‘zlarini tarbiyalashlari milliy –manaviy jixatdan takomillashtirishlari kabi masalalar pedagogik nuqtai nazardan aloxida dolzarblik kasb etmadi. Bunda badiiy adabiyot , tarix , milliy sanat va madaniyat namunalaridan foydalanishga ahamiyat kelindi.

Vaholangki o‘quvchilar bu davrda o‘zlarini tanib anglab boradilar, ularning ichki manaviy olami ochiladi. Bu davrda o‘quvchi xayotida masuliyatli bo‘lib snda o‘quvchilarda milliy ahlok ko‘nikmalari tarkib toptiriladi , o‘zi , atrofdagilar hamda jamiyat azolariga nisbatan qaror topadi. Bu esa maskur 11-16 yoshdagi o‘quvchilarning asosiy mayllarini tashkil etadi. Bular o‘zini-o‘zi anglash o‘zligini nomoyon etish , o‘zligini takidlash va tasdiqlatish o‘zini tadbqiq qilishga bo‘lgan kuchli intilishlar orqali nomoyon bo‘ladi. Maktabdagi mavjud xolatni taxlil qilish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki 5 -9 sinf o‘quvchilarida moddiy boyliklarga ega bo‘lish istagi manaviy qadriyatlarni egallash istagidan kuchlirokdir .

Albatta har qaysi xalq yoki millatning manaviyatini uning tarixi, o‘ziga hos urf-odatlar va ananalari, hayotiy qadriyatlardan ayri xolda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada tabiiyki, manaviy meros



madaniy boyliklar, ko'xna tarixiy yodgorliklar eng muxim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda pedagog-olimlar o'quvchilarning milliy qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojlarni shakllantirishning muxim bilish jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy, estetik, axloqiy, tarixiy, madaniy jihatlariga alohida e'tibor qaratishlari lozimligini kuzatishlarimiz yaqqol ko'rsatdi.

Yuqori sinf o'quvchilarida manaviy ehtiyojni o'akllantirishning pedagogik yullari S.A.Gurevich va V.Kvyatkovskiylar tomonidan qisman tadqiq etilgan. Ehtiyoj, shu jumladan qadriyatlarni egallashga bo'lgan manaviy ehtiyojni shakllantirishning pedagogik vositalari hamda o'z –o'zini takomillashtirish masalalari L.S.Necheporenka tomotidan o'rganilgan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga asoslangan xolda shuni takidlash kerakki,

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida vujudga kelgan zaruriyat bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish jarayoni orasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun yagona maqsadga yo'naltirilgan 5-9- sinflarning milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishga qaratilgan pedagogik tizimni vujudga keltirish maksadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda, 5-9- sinf o'quvchilarida milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish strategiyalarni aniqlash va ularni amaliyotga tadbiq etish vositalari, usul va metodlarni belgilab berish ham muhim vazifalardan biridir.

Bu borada quyidagi muommolarni yechish zaruriyati tugilmoqda: 5-9- sinf o'quvchilarida milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslarini belgilab berish, o'quv –tarbiya jarayonida 5-9- sinf o'quvchilarida milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirish kabilar.

Bugungi kunga kelib shaxs ma'naviyati hamda ma'naviyatlilik darajasi haqida juda ko'p gapirilmoqda. Bu sohada talaygina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu ishlar, shubhasiz ta'lim oluvchilar ma'naviyatini, ularning ehtiyojlari darajasida shakllantirishda muxim o'rin egallaydi. Biroq, ushbu yo'nalishdagi aksariyat ishlarda ma'naviyat tushunchasi, uni o'quvchi ongiga yetkazish, u yoki bu o'quv predmeti doirasida ta'lim oluvchilar ma'naviyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Shuning uchun ham bugungi kunda o'quvchi shaxsi ma'naviyatini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Biroq, ushbu yo'nalishdagi aksariyat ishlarda ma'naviyat tushunchasi uni o'quvchi ongiga yetkazish, u yoki bu o'quv predmeti doirasida ta'lim oluvchilar ma'naviyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Shuning uchun ham, bugungi kunda o'quvchi shaxsi ma'naviyatini shakllantirishning muhim jihatlarini, jumladan, ular milliy-ma'naviy qadryatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojlarni tarkib toptirish orqali, o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish ustida izchil, tizimli tadqiqot ishlarini amalga oshirish muhimdir.

O'quvchilarda milliy-ma'naviy qadryatlarni egallash ehtiyojlarini shakllantirish muammosini pedagogik, psixologik, falsafiy jihatdan chuqur tahlil etish lozim. Ma'naviyat tushunchasi o'zida bir qator tushunchalarni mujassamlashtiradi. Turli ilmiy manbalarda ma'naviy ehtiyoj tushunchasiga turlicha ta'rif beriladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov ma'naviyat tushunchasi quyidagicha ta'rif beradi: "ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymom- e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. U o'z fikrini davom ettirib quyidagilarni ta'kidlaydi: "Mening nazarimda, "ma'naviyat" tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur

qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng manoda “ma'naviyat” tushunchasi orqali ifoda etish mumkin”.

O‘zbekiston Milliy ensklopediyasida ma'naviyat tushunchasi quyidagicha izohlangan: Ma'naviyat –“mano” so‘zidan olingan bo‘lib, inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi”.

Ma'naviyat tushunchasi tarkibiga kiradigan turli tushunchalar, o‘quv predmetlariaro munosabatlar orqali kengayib, boyib boradi. Insonning ma'naviy dunyosini hamda o‘ziga xosligi vujudga keladigan ma'naviy ehtiyojlarining asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham birinchi navbatda, o‘quvchilar milliy-ma'naviy qadiryatlarini yegallash yehtiyojini vujudga keltiradigan manbalarni aniqlash lozim. Milliy-ma'naviy qadiryatlar tushunchasi milliy, diniy, tarixiy tushunchalar bilan bevosita bog‘liqdir. Milliy-ma'naviy qadiryatlar tushunchasi o‘zbek xalqi madaniyati, diniy qarashlarini yegallash ehtiyoji bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunonchi diniy qarashlar va diniy ye'tiqod insonni poklaydi, uning ruhiyatini yengillashtiradi insonning ichki dunyosi va ruhiyatiga kuchli ta'sir ko‘rsatishda islom dini keng imkonyatlarga yega. Diniy qarashlarda inson jismi va ruhiyati, yaxshilik va yomonlik, gunoh va savob qarama-qarshi qo‘yilib, bu tuo‘unchalar insonni ma'naviy takomillashuviga chorlaydi. Biz o‘z tadqiqotimiz davomida o‘quvchi ruhiyati va uning ma'naviy poklanishiga bo‘lgan ehtiyojlarini shakllantirish muammolari ustida ham to‘xtalamiz.

## **1.2. Musiqa orqali o'quvchilarda milliy – ahloqiy fazilatlarni shakllantirish.**

O'quvchilarda milliy-ma'naviy qadryatlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj ularni insonning tabiiy imkoniyatlarini to'la anglab yetishga undaydi. O'quvchi o'zining jismi, ruhiyati, qalbi va ma'naviyatining bir butun, yaxlit hodisa ekanligini anglab yetadi. Chunki insonda 3 ta aniq birlik mavjud- bu jism, qalb va ruhiyatdir. Biz bu uchlik orasida ruhiyat tushunchasiga alohida to'xtalamiz. Chunki o'quvchida milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyoji, ruhiyatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali shakllantiriladi.

O'quvchilarda milliy-ma'naviy qadryatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish haqida fikr yuritganda, e'tiborimizni eng avvalo, o'zbek xalqining mentaliteti bilan bog'liq jihatlariga qaratamiz. Mentalitet- (lotincha mentalis-aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyat. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti, ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf-odatlarini, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi.

Chunki ushbu tushunchaning tahlili o'quvchilarda milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish tizimini vujudga keltirish uchun nihoyatda muhimdir. O'zbek xalqi milliy mentalitetning asosini islomiy e'tiqod tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zbekona mentalitetning o'ziga xos jihatlari ustida to'xtalib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: “Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepayon mintaqada qanday hamjihat bo'lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo'lsa, bugun ham ta'bir joiz bo'lsa tarix va hayot gardishini, tabiatining o'zi bizni –butun O'rta Osiyo xalqlarini ayonan ana shunday do'stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da'vat etmoqda.

O'quvchilarda milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishning ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash uchun muhimligi haqida fikr yuritish davomida, ma'naviyatlilik haqidagi qarashlarimizni ham bayon etishga harakat qilamiz.

Ma'naviy barkamollikka erishish g'oyasi bugungi kun ta'lim tizimi uchun ham bosh maqsad hisoblanadi. Insondagi ko'plab "men"larning uyg'unlashuvi, ularning hayot faoliyatlari ta'lim jarayonida amalga oshadi va markazlashadi.

Milliy qadriyatlarni egallashi natijasida inson ma'naviyati yuksaladi.

O'quvchilarda milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishda quyidagi yo'nalishlarni alohida hisobga olish lozim:

- 1.Qadriyatli yo'nalishlar va ijtimoiy fikrlar ;
- 2.Milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyoji va ijodining insonni qo'zg'atuvchi kuchi;
- 3.O'z-o'zini rivojlantirishning yuqori nuqtasi;
- 4.Atrof-muxitga nisbatan aniq faoliyat ko'rsatishga tayyorlik va unga layoqatlilik kabilar.

Bugungi kunda pedagogika fani shaxs rivojlanishining turli -tuman imkoniyatlarni o'zaro farqlashga kirishmoqda. Bu tizimda ijtimoiy, jismoniy, ruhiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, ma'naviy yo'nalishlar ham ajratilmoqda

O'zbek xalq pedagogikasi va ta'lim-tarbiya nazariyasida asrlar davomida shaxs ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor berilgan. Garchand milliy ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyoji atamasi qo'llanilmagan bo'lsada ajdodlarimiz yoshlarda go'zallik axloq-odob me'yorlarini egallash ehtiyojini tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratganlar. Shaxsni ma'naviy takomillashtirish g'oyasi o'zbek xalq pedagogikasi tarixida alohida o'rin egallab kelgan. Buni Urxun-yenisey yozma yodgorliklari, muqaddas" Avesto". "Devonu lug'atit-turk", tasavvuf ta'limoti, ayniqsa naqshbandiya tariqati mazmunida yaqqol ko'rish mumkin. Mazkur obidalar ma'naviy tarbiya, ma'naviy ehtiyoj mahsuli ekanligi, u shaxslararo ma'naviy muloqotda nomoyon bo'lishi asoslab berilgan.

Ma'naviy ehtiyoj insonning taraqqiyotini ta'minlovchi pedagogik omil ekanligi bayoon qilingan.

O'quvchilarda illiy-ma'naviy qadriyatlarini egallash ehtiyoji shakllanishining uchunchi bosqichi, ehtiyojlarining o'zoro uzviy tarzda bir-birini taqozo qilishi bilan izohlanadi. Shu tariqa o'quvchilarda shakllantiriladigan milliy-manaviy qadriyatlarini egallash ehtiyojining o'ziga xos jihatlari aniqlash mumkin. Chunonchi:

1.O'quvchilarda shakllantiriladigan milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyoji o'zining aniq mazmun-mohiyatiga ega.

2.O'quvchilarning milliy-ma'naviy qadriyatlarning egallash ehtiyojini anglashlari, ularning o'ziga xos hissiy holatlari bilan bog'liq

3.O'quvchilarning his-hayajonli holatlari milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojlarini qanoatlantirish imkonini beradi.

4.O'quvchilardagi milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojining qondirilishi, ularning his-hayajonlarini pasaytirish yoki bartaraf yetishga ko'maklashadi.

Shu tariqa ehtiyojlar tabiiy , ijtimoiy hamda madaniy ehtiyojlar tarzida o'zaro farqlanadi. O'u bilan bir qatorda, A.G. Kavalov tomonidan taklif etilgan guruhlashda ehtiyojlar moddiy, ma'naviy, jamoaviy ehtiyojlar tarzida izohlanadi. Bugungi kunga qadar o'quvchining ma'naviy dunyosining boyitishda muayyan chegaralar mavjud emas. Bu esa insonning hayotiy faoliyati va ijtimoiy turmush tarzi bilan bog'liqdir.

Insonning moddiy ehtiyojlari u ishlab chiqargan buyumlarda aks etsa, ma'naviy ehtiyojlari intellektual. Madaniy faoliyatlarida namoyon bo'ladi.

Ma'naviy ehtiyojlarni tahlil qilish natijasida uning mavjud qirralari aniqlanadi. Bu shundan dalolat beradiki, ma'naviy ehtiyojlar- bu ideal narsalar va hodisalar hamda shunday narsa va hodisalarni yaratish faoliyatini egallashga bo'lgan ehtiyojdir. Demak, biz o'quvchilarda eng avvalo, milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash va jamiyat a'zolarini farovon

hayot kechirishi uchun zarur qadrlı narsalarnı yaratish faoliyatini egallash ehtiyojini shakllantirishimiz lozim.

O‘milliy-ma‘naviy qadryatlarnı egallash ehtiyojini shakllantirish natijasida, ularda axlokiy jihatdan takomillashish maqsadi hosil bo‘ladi. Axloqiy ideallar esa, o‘quvchilarning o‘z hulq-atvorlari, xatti-harakatlarini jamiyat a‘zolarining manfaatlari asosida tarkib toptirishni taqozo qiladi. Yaxshilik, yomonlik inson maqsadlarining mohiyatini ochishga xizmat qiladi. O‘quvchining ma‘naviy ehtiyojiga aylangan oliy maqsadlarga erishish, uning o‘z “meni” va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish yo‘llarini ifodalaydi.

### 1.3. Musiqaning inson va jamiyatdagi o'рни.

O'quvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarni, milliy qadriyatlarni egallash maqsadi shakllantirilgandagina bu maqsad milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini vujudga keltiradi. O'quvchini oliy maqsadga ega bo'lishlari, ularning madaniyatliliklari va ma'naviyatliliklari mezonidir.

O'quvchining o'ziga xos idealga ega bo'lishi natijasida uning umuminsoniy, ijtimoiy ruhiyati namoyon bo'ladi. U o'zining oliy darajadagi hayotiy faoliyati rejasini tuzadi. Bu rejada o'quvchining mdaniy-ma'naviy ehtiyojlari, intilishlari aks etgan bo'ladi. Chunki milliy-ma'naviy qadriyatlarda jamiyat a'zolarining tafakkuri, ajdodlarning oliy maqsadi, intilishlari va ehtiyojlari o'z ifodasini topgan.

Ma'naviy ehtiyojlar o'quvchining holatini belgilaydi. Ular o'quvchilarni oliy madaniy maqsadlar sari yetaklaydi.

O'quvchining go'zallikka intilishi natijasida ularning badiiy didi, hissiyotlari, dunyoqarao'lari, saviyalari, nuqtai nazarlari, ehtiyojlari. Ijodiy faoliyat ko'nikmalari tarkib topadi. Nafosat sirlarini egallashga intiladigan o'quvchilar undan zavqlana olishlari bilan ajralib turadilar. Go'zallikni egallashga bo'lgan ehtiyoj eng avvalo, o'quvchining undan zavqlana olishida namoyon bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, har qanday ehtiyoj bosqichlarga ega bo'ladi.

“Qadriyat” tushunchasining ilmiy istemolga olib kirilganiga ko'p vaqt bo'lmagan, ammo uning negizi, substansional mohiyati insonning ijtimoiy faoliyati yekanligi mudom yetirof yetiladi. Antik davr mutaffakkirlarida “qadriyat”, “qadr”, “qadrlash” tushunchalarini ijtimoiy borliq, inson faoliyatining bahosi, baholanishi, borshqalar tomonidan malum bir normalar asosida qadrlanishi tarzida tushunganlar. Masalan, Aristo telning fikriga ko'ra, qadriyat hodisalarga baho, munosabat, yaxshilik va yovuzlik,



qimmat tushunchalarida, shuningdek, insondagi sog'liq, kuch-quvvat, guzallik sifatida talqin qilinadi. Mutaffakkir qadriyat so'zini " Insonning qadr-qimmati" manosida qo'llab, uni kamolotga yetishishi, biror narsaga bo'lgan munosabatining ifodasi sifatida qaraydi.

Aflotun asarlarida g'oya, ideal, haqiqat va qadriyat bir-biridan ajratilmagan. O'rta asrlarga kelib yesa inson Sharq va G'arb Xudo, Alloh nomi bilan ish ko'rgan. Demak, ilohiy qadriyatlarga etibor katta bo'lgan. Bugunga kelib yesa diniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketmoqda.

Nemis qadriyatshunosi G.Rikkert falsafa qadriyatlar haqidagi fan ekanligini takidlaydi. Rikkert qadriyatlarni o'rganish to'g'risida ko'proq madaniyat va ananaviy go'zal qadriyatlarga yetibor berish kerakligini taklif qiladi. I.Kant odam haqiqatni izlash uchun fikrlashini uqtirib, haqiqatni go'zallik vayaxshilikka bo'ladi. Haqiqat bahs orqali tug'iladi, qadriyat yesa aql bilan yaratiladi, deydi faylasuf. Sharq mutaffakkiri Abu Hamid G'azzoliy inson faqatgina tafakkur orqaligina dunyoni anglashini uqtiradi.

"Qadriyat" tushunchasi Sharq va G'arbda qadimdan qo'llanilganiga qaramay, XX asrga kelibgina faylasuflar u to'g'risida talimotni ruvojlantira oldilar. Chunki XX asrda qadriyatlar haqidagi talimotning ruvojlanihi uchun barcha imkoniyatlar vujudga keldi. Falsafa qomusiy lug'atida "Qadriyat-voqyelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-ahloqiy, manaviy-madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha. Jamiyat va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa hodisa va voqyealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, haqiqat, marifat, madaniyat, moddiy va manaviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, ahloqiy xislat hamda fazilatlar, anana, urf-odat, udum hisoblanadi", -deb qayd etiladi. Demak, "qadriyat" falsafiy kategoriya, tushuncha sifatida muayyan moddiy va manaviy hodisalar, shuningdek, ularning ayrim xususiyatlari ifodasidir. Bu hodisalardan jamiyat o'zining amaliy ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanadi. Insonning ijtimoiy-siyosiyYu iqtisodiy, ahloqiy, estetik jihatlardan olamga bo'lgan munosabatini ifodalovchi tushunchalar har xil sharhlanib kelinmoqda. Qadriyat

shakllari orasida qonuniy, zaruriyo uyg'unlik mavjud bo'lib,ular doimo dialektik aloqadorlikdadir. Kundalik hayotda faol qo'llaniladigan qadriyatlar iborasi odamlar uchun zarur ahamiyat kasb etadigan narsa, hodisa, obekt, predmet kabilarga nisbatan ishlatiladi. "Qadr" tushunchasi o'zbek tilidagi bazi ibora va so'zlarda o'arqona falsafiy mazmun borligidan dolalat beradi hamda serqirra mano kasb etadi.

Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotnin uzidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi... qolgan qadriyatlar, aslini olganda, hayot nematlarining mohiyatidir va manaviy qadriyatlardir.

Olim J. Tulenov fikricha esa "qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushuniladi". Inson hayot bo'lsagina narsalar, tabiat, butun borliq, moddiy va manaviy madaniyat qadr-qimmatiga ega bo'ladi.

## **II. BOB. MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING NAZARIY – FALSAFIY MASALALARI .**

### **2.1.“ Qadriyat” , “ milliy qadriyat “, va “ umuminsoniy qadriyat “ tushunchalarining nazariy – falsafiy tahlili.**

“Qadriyat” tushunchasining ilmiy iste'molga olib kirilganiga ko'p vaqt bo'lmagan, ammo uning negizi, insonning ijtimoiy faoliyati ekanligi mudom e'tirof tilgan. Antik davr mutaffakkirlarida “qadriyat”, “qadr”, “qadrlash” tushunchalarini ijtimoiy borliq, inson faoliyatining baxosi, baxolanishi boshqalar tomonidan ma'lum bir normalar asosida qadrlanishi tarzida tushunganlar. Masalan Aristotelning fikriga ko'ra, qadriyat hodisalarga baxo, munosabat, yaxshilik va yovuzlik tushunchalarida talqin qilinadi.

Falsafa qomusiy lug'atida “Qadriyat – voqyelikdagi muayyan hodisalarning umumiesoniy, ijtimoiy – ahloqiy, ma'naviy – madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy tushuncha.

Qadriyatlar ichida eng birinchisi va eng umumiysi hayotning o'zidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi.

Qadriyatlarning mazmuni jamiyaning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liqdir. U keng ma'noda madaniyat dunyosidir, bu esa inson ma'naviy hayotining hamma faoliyatining qimmatini belgilovchi baxodir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, qadriyatlarni o'z mohiyati va amal qilish doirasiga qarab bir necha shakllarga bo'lish mumkin:

- 1.Moddiy qadriyatlar- mehnat va mehnat qurollari, moddiy nematlar.
- 2.Manaviy qadriyatlar- manaviyat, madaniyat ilmiy falsafa, axloqiy-estetik qarashlar,diniy, tarixiy, badiiy,dunyoviy qimmatli nomoddiy boyliklar.
- 3.Tabiiy qadriyatlar- insonni o'rab turgan va insoniyat yashashi uchun zarur bo'lgan tabiiy boyliklar, o'simliklar, hayvonot olami, yer osti va yer usti boyliklari, tuproq, suv, havo kabilar.

4.Iqtisodiy qadriyatlar- texnika va texnologiya, shuningdek, mehnat bozori munosabatlari va hokazo.

5.Ijtimoiy –siyosiy qadriyatlar- davlatchilik, demokratiya.adolat, tinchlik, mustaqillik.

Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlardan muayyan millat yoki elatning manfaatlar yig'indisini tashkil etishi bilan farqlanadi. Bir millat qadriyatlari boshqa millat tomonidan qabul qilinmasligi mumkin. Shunga qaramay,har bir millat boshqa millat uchun qimmatli bshlgan qadriatlarni hurmat qilmog'i manaviyatdir. Zero, manaviyatning asasiy o'zagi – milliy, umuminsoniy va shaxsiy qadriyatlardir. Milliy qadriyatlarga to'xtalganda, alohida shaxslar yaratgan qadriyatlarni etirof etish lozim. Alohida shaxslarning qadriyatlari ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarila olishini xalqimiz tarixidan ko'plab misollar keltirib isbotlash mumkin . Masalan, Farg'oniyning "Astronomiya negizlari", Ibn Sinoning "Tib qonunlari", Xorazmiyning "Algorit"i Beruniyning "Meneralogiya"si Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asari , Buxoriy, Termiziy, Naqshbandiy, Kubroviy, Yassaviy kabilarning manaviy meroslarini keltirish mumkin.

Milliy madaniyat va qadriyatlarning mazmunini bilish, ularga etiqod qilish, yosh avlod ongiga insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Vatan baxt-saodati va milliy istiqlolimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga, komil inson bo'lib voyaga yetishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda , milliy qadriyatlar bir millat azolari ming yillar davomida yaratgan moddiy va manaviy madaniyat boyliklari, milliy til, milliy adabiyot, uning psixik ifodasi, xarakteri, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, sharqona ahloqiy prinsiplari, urf-odatlari, ananalari kabilardir.

Umuminsoniy qadriyatlar yesa jamiyat taraqqiyoti dvvomida takomillashib borib, kishilarga hayotning mazmunini chuqurroq tushinish, o'zlarining xatti-harakatlarini manaviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi. Umuminsoniy qadriyat- jamiyat va odamzod nasli uchun yeng qadrli va umumijtimoiy ahamiyatga yega bo'lgan narsalar,hodisalar, sifat, faoliyat va

boshqalarning ismi yoki nomini emas, balki ularning ijtimoiy qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan aksiologik tushunchadir. Yoshlarimiz ongiga singdirilayotgan milliy istiqlol g'oyasi manaviy meros asosidagi umuminsoniy qadriyatga tayanadi.

Umuminsoniy qadriyatlarqlar alohida xalqlarning, millatlarninggina emas, balki bashariyatning mulkidir. Shu bois, manaviy meros, tarixiy tajriba, anana va urf-odatlar –barkamol avlod kamolotida qadriyatlar darajasiga yetishishi tarbiya institutlarining o'rnini beqiyosdir. Zero, millat o'z qadriyatini boshqa millat qadriyatlaridan ayri holda yarata olmaydi. Milliy o'zlikni anglashda milliy g'oya, mafkura va millatga xos bo'lgan yangilanish jarayonlari jadal ruvojlantirilmog'i lozim.

Yosh avloga talim-tarbiya, bilim berish, uni ijtimoiy hayot va faoliyatga tayyorlashning asosiy mezonlaridan biridir. Talim tarbiya orqali yoshlarning milliy qadriyatlar sirasiga kiruvchi ahloqiy fazilatlarini shakllanadi, jamiyatdagi g'oyaviy, mafkuraviy jarayonlarga nisbatan munosabati o'zgaradi va barkamol shaxs bo'lib yetishishida imkoniyatlar paydo bo'ladi. Shexsning ijtimoiy mavqeyini aniqlashda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimini isloh qilish, ijtimoiy tartib va barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, ishtimoiy nazoratni amalga oshirishda talim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb yetadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov oila qadriyatlari yoshlarning barkamol insonlar bo'lib shakllanishiga alohida ahamiyatga yegalligi, xalqimiz mustabidlik davrida ham o'z qiyofasini unutmagani, insoniylik o'zbek xalqi qadriyatini asosi yekanligini takidlaydi.

Har qaysi mamlakat, yeng avvalo, o'zining yuksak madaniyati va manaviyati bilan qudratlidir. Mustaqilligimizning boshidayoq yurtimizda ianiviy merosga asoslangan qadriyatlarni tiklash, manaviy va marifat ishlariga alohida ahamiyat bergani muximdir.

O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarga xurmat azaliy milliy yondashuv sanaladi. Xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, birodarlik, do'stlik, sadoqat, halimlik umuminsoniy hamjihatlikning asosini tashkil yetadi. Umuminsoniy

manfaatlarga milliy tiklanish g'oyasining uyg'unlashuvi istiqloлга yerishgan vatanimiz tashqi va ichki siyosatining o'zagini tashkil yetadi. Milliy qadriyatga egalik, ozodlik, hurriyatni qo'ldan bermaslik, uni oliy qadriyat deb bilish milliy mentalitetimizning negizidir.

Shu bois, yoshlarni yezgulikka yo'g'rilgan qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularga vatanparvarlik g'oyalarini singdirish muhimdir. Vatanparvarlik, yeng avvalo, davlatimiz ramzlari bayroq, madhiya. Gerbimizda o'z ifodasini topgan. Til orqali yesa yurtimizni ulug'laymiz, yoshlarimizni uning qadriga yetishga chaqiramiz. Ramzlarda xalqimizning orzu-umidlari, hayot yo'li, urf-odatları, tabiatga bo'lgan munosabati, qadriyatlariga sodiqligi, mehr-muhabbati kabilar o'z aksini topgan.

Vatan ona allasiga yo'g'rilgan beshikdan boshlanib, ota-onani tanlab bo'lmaganidek, Vatan ham tanlanmaydi. U Vatanni sevish, ardoqlash, taraqqiy yetishiga hissasini qo'shish imkoniyatiga yega. Shu orqali u hayotda ham o'ziga, ham oilasiga baxt bera oladi. Xalqimizda ota-ona qanchalik ulug'lanib, ardoqlansa, tug'ulib o'sgan Vatan shunchalik qadrlidir.

Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat o'zbek mentalitetiga xos xususiyatdir. Shuning uchun ham yoshlar ongiga milligimizga xos bo'lgan or-nomus, milliy g'urur, mehribonlik, vijdonlilik, sadoqat, mehmoedo'stlik, ahillik, ota-bobolardan faxrlanish, nasl-nasabini ulug'lash kabi vatanparvar bo'lishga undaydi.

“O'zbekiston tanlagan yo'l – umuminsoniy va umume'tirof yetilgan demokratik qadriyatlarga yerishishga qaratilgan, ko'p asrlik madaniyatimizning yeng sara yutuqlari, milliy an'analarimiz” ajdodlarimiz diniga bo'lgan sadoqatimiz bilan uyg'unlashib ketgan yo'l – biz uchun o'zgarmasdir. Yoshlar tarbiyasida barqaror qadriyatlarning ahamiyati katta.

Yoshlarimiz orasida ba'zida loqayd, ijtimoiy, taraqqiyotning o'ziga xos tomonlaridan bexabar, xudbin, mustaqil fikrdan yiroqlari ham uchrab turadiki, aynan shular orasidan ommaviy madaniyatga berilib, o'zligini unitayotganlar, giyohvandlar, ichkilikka berilganlar chiqayotgani achinarli holdir. Albatta, yoshlarning bunday yo'llarga kirib ketishi jamiyatimiz va ijtimoiy taraqqiyotimiz

uchun katta xavfdir. Chunki yoshlar jamiyatimizning tayanchi ekan, nafaqat ularning jismonan sogʻlomligi, balki ruhan ma'naviy sogʻlomligi ham katta ahamiyatga egadir.

Qadriyatlarni teran anglagan yoshlar ota-onalari yaratib bergan imkoniyatlar va sharoitlardan foydalanibgina qolmay, oʻzlari ham kelajaklari uchun harakat qiladilar. Bu borada mukammal bilim olib, uni hayotga tadbiq yeta bilish katta ahamiyatga yegadir.

Qadriyatlar uygʻunligi insonning komil inson darajasiga yetish uchun intilishida, erkin yashashida, farovon hayot kechirishida alohida vosita hisoblanadi. Qadriyatlarni asrab-avaylash, rivojlantirish ijtimoiy taraqqiyot uchun muhimdir. Xalqimiz azal-azaldan oʻtgan ajdodlarini, oʻtmishga aylangan hayotining yesda qolgan ayrim ijobiy qirralarini eslab, bu holatni eng aziz va muqaddas tuygʻu-xotira deb atayda. Chunki, Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek. Tarixiy xotirasiz kelajakni tasavvur qilish qiyin. Xotira bizga oʻtmishni yeslatib, saboq beribgina qolmay, oʻtayotgan har bir kunning qadriga yetishni ham oʻrgatadi.

Demak, hayot tarzini oʻzgartirish uchun tafakkurni oʻzgartirish kerak. Yoshlar oʻz fikrlash tarziga yega boʻla borgan sari oʻzligini, ma'naviy merosimizning ahamiyatini anlay boshlaydilar. Shuning uchun avvalo yoshlarda fikrlash qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak. Donolik insonni shahardagi oʻnta hukmdordan qudratliroq qiladi. Inson yaxlit bir menga yetishi kerak. Oʻzlikni tanish degani ana shu. Nafsni yoʻlga solgandan keyin ahloqiy me'yorning qadri oshadi.

Shunday qilib, istiqlol davrida erishilgan eng katta ijtimoiy taraqqiyotdagi yutiq bu milliy oʻzlikni anglash davri boʻldi. Ajdodlarimizga xos mehnatsevarlik, adolatparvarlik, halollik, insonparvarlik milliy istiqlol gʻoyasi orqali yoshlarga yetkazilmoqda va shakllantirilmoqda. Mustaqillikni asrash va uni taraqqiy ettirish e'tiqodli, elim deb, yurtim deb yashayotgan har bir insonning yuragidan joy olmoqda. Milliy oʻzlikni anglashda yangi qadriyatlarning oʻrni muhimdir. Ularni xalqimiz oʻzining ehtiyojlariga muvofiq umuminsoniy qadriyatlar bilan uyogʻunlashtirilmoqda. Qaoʻsidir xalq uchun qadriyatli bulgan voqyea, jarayon,

narsa predmet boshqa millat uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Ma'naviy madaniyati yuksak o'zbek xalqining qadriyatlari ham ajdodlari merosi kabi yuksakdir. Qadriyatlarni xalqning ijtimoiy ongidan, ma'naviyati va madaniyati hech qachon siqib chiqarish mumkin emas.

O'zbekiston jamiyatining ma'naviy yangilanishi jarayonida xalqimiz ongida yuksalish ro'y berdi. Zero, mustaqillikning ma'naviy asoslarini mustahkamlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi muhim ahamiyatga ega.

Ruvojlanayotgan dunyoda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga uyg'unlashishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Zero, globallashuv jarayonida chetdan kirib kelayotgan qadriyatlar yoshlarimiz ongiga o'zining ijobiy ta'siri bilan birgalikda salbiy ta'sirini ham o'tkazmoqda.

Bu yoshlarga "ommaviy madaniyat"ning ta'sirida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi.



## 2.2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

Mustaqillik sharofati bilan hayotimizning barcha jabhalarida, xususan madaniyat sohasida ham katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. «Biz barpo etayotgan yangi jamiyat ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqloq mafkurasiga, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashga asoslanadi», -deydi birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov.<sup>2</sup>

O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning madaniyati, urf - odat va an'analarini rivojlantirish, ularga berilgan imkoniyat va sharoitlarni yanada kengaytirish - davlat siyosatining muxim yunalishini tashkil etadi. bu bejiz emas, albatta. Hayot saboqlari shundan dalolat beradiki, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo uni madaniyatidan, tarixidan, o'zligidan judo qilishga intiladi. Bu yoshlarga ham daxldordir.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashabbus guruhi bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek, «Agarda kimda-kim bizning mustaqil taraqqiyot yo'limizdagi orzu - maqsadlarimizga erishish yo'lini, yangi jamiyat qurish yo'lini to'smoqchi bo'lsa, avvalo, xali suyagi qotmagan, mustaqil dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan yoshlarimizning qalbi va ongining mo'rtligidan foydalanib, ularning ma'naviyatini buzib, bizning azaliy tabiatimiz va muqaddas odatlarimizga mutloqo zid bo'lgan g'oyalar bilan chalg'itib, o'zining g'arazli va jirkanch niyatlarini amalga oshirish yo'lida qurol qilib olishga intiladi»<sup>3</sup>

Mana shunday urinishlar va tajovuzlarning oldini olish uchun bugungi milliy taraqqiyotimizga xizmat qiladigan umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda milliy madaniyatimizni, urf-odat va an'analarimizni hamda ma'naviyatimizni har bir insonning, ayniqsa yosh avlodning ongi va qalbiga jo etish katta ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>2</sup> И.А.Каримов. Миллий истиклол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. Т., «Ўзбекистон», 2000, 23-бет.

<sup>3</sup> «Фидокор» газетаси, 2000 йил 25 январь.

O'zbeklarning insonni lol qoldiradigan ajoyib amaliy san'ati, yuksak badiiy did va maxorat asosida ishlangan hunarmandchilik buyumlari bilan qadim zamonlardan boshlab hozirgacha ham dunyo xalqlari o'rtasida shon-shuxrat qozonib kelmoqda. Hunarmandchilik san'ati xalqimizning avlod-ajdodlari tomonidan saqlanib kelayotgan merosi, bebaho qadriyatdir.

O'zbek xalqining amaliy san'ati, hunarmandchilik ildizlari uzoq o'tmishga borib tutashadi. O'zbek xalq hunarmandchiligi tarixiga hozirgi zamon nigoxi bilan nazar tashlaydigan bo'lsak, manbalar, o'tmishdan saqlanib qolgan yodgorlik va obidalar eramizdan avvalgi minginchi yillarda yaratilgan san'at durdonalaridan guvohlik beradi. Avlod-ajdodlarimiz qadimdan naqqoshlik, o'ymakorlik, tikuvchilik, zargarlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, misgarlik, sangtaroshlik, musiqa asboblari yasashga va boshqa sohalarda katta maxorat ko'rsatganlar. Ular nozik va go'zal, jahonda tengi yo'q naqsh ustasi bo'lganlar, faqat yogochga emas, shuningdek, marmar toshga, metalga o'ta nozik va go'zal naqsh solganlar, rang-barang gullar solib gilam va matolar to'qiganlar. Bularga qarab ota-bobolarimiz, momolarimizning maxoratlari va didlariga qoyil qolamiz.

Yoshlar bizning kelajagimiz, ularni qanday tarbiyalab, ta'lim bersak kelajagimiz ham shunday bo'ladi. bu o'rinda Prezidentimiz: «Kelajakda O'zbekistan yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim. Mamlakatimiz mard, fidoiy kishilar yurtiga, mexru-shavqat, muhabbat barqaror bo'lgan, tafakkur va ijod qaynagan muqaddas makonga aylanishiga aminman»<sup>4</sup> degan so'zlari ta'lim-tarbiya sohasini mamlakatning rivojlanishidagi ustivor yunalishlardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi bilan ta'lim- tarbiya sohasiga qator yangiliklar va shu bilan birga xalq etilishi zarur bo'lgan muammolar yuzaga keldi. Ayrim talaba yoshlar orasida ahloqqa mehnat, bilim olishga nisbatan munosabatning yuzakilashib borayotgani, ta'lim-tarbiya jarayonida ba'zi bir

---

<sup>4</sup> И.А.Каримов. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. “Маърифат” газетаси. 1997 й. 3 сентябрь.

kamchiliklarga yo‘l quyilishi sababli ular orasida bezorilik, ahloqsizlik kabi salbiy holatlar uchrab turibdi. Bu borada Prezidentimiz: -«Milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo‘lga qo‘ymok kerak. Yangi mafkuraning asl mazmuni – yangicha erikni fikirlay oladigan, mutelik va jur'atsizlik to‘g‘risida mutlako holi, mustaqil insonni tarbiyalashdir» deb ta'kidlaganlar.

Tarbiya - bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko‘rsatish jarayonidir. O‘rta ta’lim va yangi turdagi zamonaviy o‘quv muassasalarida tarbiya jarayonini taxlil qilish, unda yuz berayotgan qarama-qarshiliklarni aniqlash, pedagogika va psixologiya fanlarining asosiy vazifalaridan biridir. Tarbiya jarayonining asosi bo‘lgan ahloqiy tarbiya muammolari va ularning xal etish vazifasi esa bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. «Ta'lim to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi, unda yangi turdagi o‘quv muassasalari, milliy kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor berilishi yuqorida sanab o‘tilgan vazifalar bilan uzviy bog‘liqdir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq IX sessiyasida milliy kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va faoliyat ko‘rsatishning asosiy tamoyillarida ta'lim tizimining tuzilishi va mazmuni jihatidan isloh qilish uchun talaba yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak ahloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash kabilarga alohida o‘rin ajratilgan.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ham umumlashtirilgan holda kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va bugungi kun talabiga javob bera oladiigan faoliyatni ta'minlashga alohida e'tibor beriladi.

Bugungi kunda ko‘p yillik tarixga ega bo‘lgan milliy ahloqimizning azaliy mezonlarini tiklash orqali xalollik, to‘g‘riso‘zlik, or-nomuslilik, iffatlilik, insonparvarlik, hamjamiyatlilik, vatanparvarlik, fidoiylik, sadoqat kabi ko‘pdan-ko‘p go‘zal insoniy fazilatlarni kamol toptirish vaqti keldi. Tarbiyaviy chora-tadbirlar, yo‘l va usullarning markaziga o‘z milliy manbalarimizga, iymonu-e'tiqodimizga, qadr-qimmatimizga muvofiq keladigan ahloqiy talablarni yosh avlod oldiga kuyishimiz zarur.

Inson hulq ahloqi, xatti -harakatlarini tartibga solish va boshqarishda ijtimoiy odatlar aloxida ahamiyatga egadir. Ahloq xulq namunalarning ko'p marta takrorlanishi kishi sezgisini mustaxkamlaydi va ularda odat tusiga kiradi. Shaxs xulq - atvori, odobini tartibga solishda turli tarbiyaviy metodlardan tashqari milliy urf - odatlarning ham xizmati katta bo'lib, ular ongni ortiqcha zo'riqishdan holi qiladi va kishilardagi istak va maqsadlar mushtarakligini yuzaga keltiradi. Ma'naviy kiyofani tarkib toptirishga asos bo'ladi.

Respublikamizda yashayotgan turli millat vakillari mashaqqatli va taraqqiyot sari olib boradigan nurli yo'lni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qolgan holda bosib o'tdilar.

O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat azaliy milliy yondashuv sanaladi. Xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, birodarlik. Do'stlik, sadoqat umuminsoniy hamjihatlikning asosini tashkil etadi.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy-siyosiy yuksalish, millatlararo tolerantlik asosida tinchlik va xotirjamlik, barqarorlikni soqlab qolish yo'lidagi matonatli kurash, bag'rikenglik va vijdon erkinligi, ma'naviy merosimizni tiklash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozla, taraqqiyot sari bosqichma – bosqich harakat hamisha va har qadamda umuminsoniy manfaatlar bilan integrallashuv negizida amalga oshirib kelindi.

Mustaqillikning ilk yillaridanoq respublikamiz ravnaqiga eng katta to'siq – bu g'oyaviy bo'shliq ekanligi har qadamda seziladi. Bugun jamiyatimizda inson kamoloti, yoshlarimizning hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida sog'lom muhit va keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Maktab, litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida milliylikka asoslangan diniy qadriyatlar farzandlar ongiga singdirilmoqda. Ammo ma'lum bir sabablarga, ayniqsa “ommaviy madaniyat” ta'siri ostida axloqsizlik, ota-onaga nisbatan loqaydlik, kattalarga nisbatan hurmatsizlik, xudbinlik kabilarning avj olayotganiga diniy bilimsizlik ham sabab bo'layotgani sir emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini singdirishda muhim ahamiyatga ega:

- yoshlarimiz ongiga nafaqat dunyoviy bilimlarni, balki milliy va diniy bilimlardagi ezgu qadriyatlarni singdirishni kengroq yo'lga qo'yish;

- milliy qadriyatlar asosidagi urf-odat, an'ana va marosimlarni mustaqillik davrida shakllangan yangi qadriyatlar bilan boyitish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini halollik, bag'rikenglik, millatparvarlik, vatanparvarlik, axloqiylik, ilm-fanga va vatanga fidoiylik kabi tushunchalarni targ'ib qiladigan asarlar, videofilmlar, ko'rsatuv, yeshittirish va tadbirlar orqali yoshlarimizga singdirish;

- jamiyatning ma'naviy yangilanishida Markaziy Osiyo Uyg'onish davri mutaffakkirlarining ma'naviy va ilmiy merosidan, jadidchilarimizning sabr – toqat bilan erishgan yutuqlaridan unumli foydalanish;

Oilalar va o'quv yurtlari hamkorligida mahallalarda milliy qadriyatlar ahamiyatini tahlil qilib beradigan tadbirlar o'tkazish;

- yoshlarga hayotning o'zi eng buyuk qadriyat ekanini ta'lim va tarbiya uyg'unligi asosida anglatib, inson jismonan va ma'nan sog'lom bo'lsagina oldida turgan barcha maqsadlarga erisha olishi to'g'risidagi uslub va vositalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ayni paytda o'zbek milliy madaniyati, madaniy merosining necha asrlar davomida umumjahon madaniy merosi darajasida qaror topganligini dunyo e'tirof etmoqda e'zozlamoqda. Ajdodlarimiz yaratgan ezgu va muqaddas qadriyatlar ruvoj topib, insoniyatning kelgusi taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, xalqlarni ma'naviy va ruhiy jihatdan buyuk o'zgarishlarga tayyorlab keladi.

Ma'rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan bo'lgani sababli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi ham marifatli, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdir.

Mamlakatimizda yoshlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun olib borilayotgan islohotlar, avvalo, O'zbekistonda fuqorolik jamiyatni qurish va uning ravnaqi yo'lidagi sa'yharakatlardir. Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Hamмамizga teran bir haqiqat ayon bo'lishi kerak – biz yurtimizning ertangi rivoji yo'lida qanday chuqur o'ylangan dasturlarni tuzmaylik, bu rejalarni bajarish uchun qanday moddiy baza va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha sarmoya safarbar etmaylik, ularning barchasini amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham bo'lsa, yuqori malakali ish kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis yoshlarimiz, desak, o'ylaymanki, hech qanday xato bo'lmaydi". yetuk mutaxassis milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida shakllanishi, oila, jamiyat, Vatan oldidagi ma'suliyatni teran anglaydigan shaxslar bo'lib yetishishi katta ahamiyatga yega va bugunning talabidir.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishi sharoitida yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini qakllantirishning istiqbollarini belgilashda quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- o'zbekona milliy qadriyatlarning betakrorligi va insonparvarligi;
- milliy qadriyatlarning asrlar sinovidan o'ta olganligi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga e'tiborning kuchayishi;
- diniy qadriyatlarning milliy qadriyatlarga bog'lanib ketgani;
- ijtimoiy taraqqiyot jarayonida milliy qadriyatlarning sayqallanib borishi;
- ta'lim va tarbiya uyg'unligiga qadriyat sifatida qaralayotganligi;
- insonning eng oliy qadriyat ekanligi;
- ma'naviy merosning qadriyat sifatida e'zozlanayotganligi va h.k.

Demak, milliy taraqqiyot qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojni mudom aniqlashtirib borishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga dialektik nuqtai nazardan yondashishni taqozo etadi.

## **Musiqa tinglashning o`quvchilar ma'naviy-estetik va g`oyaviy tarbiyasiga ijobiy ta'siri.**

“Musiqa madaniyati fani” dasturiga milliy musiqiy merosimiz namunalarini kiritilishi, o`quvchi-yoshlarning ma'naviy estetik va g`oyaviy tarbiyasiga o`z ijobiy ta'sirini ko`rsatadi. Zotan, tinglash va kuylash, o`quv materiallari ta'lim mazmunini tashkil etadi. Ularni tinglash va kuylash, faoliyatlari vositasida o`rganish bilan birga, cholg`uchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatlari bilan har bir tomonlama o`zlashtirish va musiqiy tavsiyalarini ushbu faoliyatlar vositasida ifodalash imkoniyatlarini yaratadi. Musiqiy merosimiz namunalarini kiritilishi o`quvchilarni tarbiyasiga o`z ijobiy ta'sirini ko`rsatadi. Shu bois qadriyatlar, an'analar va marosimlar bilan o`quvchi-yoshlarni yaqindan tanishtirish, ular ongiga singdirib borish musiqiy ta'limning bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biridir.

“Musiqa madaniyati” o`quv predmetida mazmun jixatdan vatan ravnaqi, yurt boyligi, tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, millatlararo totuvlik va dinlararo bag`rikenglik kabi milliy istiqloq g`oyalarini aks ettiruvchi badiiy asarlar repertuardan o`rin olishi muhim omil sanaladi.

“Musiqa madaniyati” darslarda asar mazmunini to`la yoritib borish vositalaridan o`z vaqtida o`rinli foydalanish, bu vositalarning ta'sirchanlik darajasini oshirish metodlarini qo`llay bilish, badiiy asarning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi. Shu jixatdan millatlararo totuvlikni, vatan ravnaqi, yurt tinchligini kuylovchi “Xur Respublikam” Q.Qayumov she'ri A.Mansurov musiqasi, “O`zbekistonim” F.Shoxismoil she'ri, Sh.Ramazonov musiqasi “Istiqloq haqida qo`shiq”, Q.Ma'murov musiqasi L.Qo`ldoshev she'ri, “Mustaqillik lolalarimiz” R.Abdullaev musiqasi, N.Nazrullaev she'ri, “Yurtim qomusi” Q.Ma'murov musiqasi, R.Tolib she'ri, “Biz tinchlikni istaymiz” K.Kenjaev musiqasi, B.Isroilov she'ri kabi qo`shiq va kuylarning repertuarlardan o`rin olishi va shu asosda milliy istiqloq g`oyalarini o`quvchilar ongiga singdirishni taqozo etadi.

“Musiqa madaniyati” darslarida musiqiy asarlarni, shu jumladan milliy istiqloq g`oyalarini tarannum etuvchi asarlarni tahlil etish uchun keng imkoniyat

yaratiladi. Bunda musiqiy idrok, uni baholash va unga shahsiy munosabat bildirish uchun etarli vaqt ajratish mumkin bo`ladi ya'ni musiqiy ta'sir jarayoni kompleks tarzda yo`lga qo`yiladi.

Darslarda o`quvchilarda badiiy vositalar xususan, musiqiy vositalar orqali milliy istiqlol g`oyalari shakllantirish jarayonida ustoz va shogird an'alaridan foydalangan holda har bir o`quvchi bilan individual mashg`ulot olib borish, ta'lim mazmunida musiqiy merosning ustuvorligiga asoslanish, mashg`ulotlar jarayoni ta'lim va tarbiyaning uzviyligi printsipli asosida tashkil etish, bir so`z bilan aytganda, darslar mazmunini o`quvchilarning ma'naviy, estetik, ruhiy siyosiy va jismoniy rivojlantirishga yo`naltirish mumkin bo`ladi.

Musiqiy tarbiyaning yana bir muhim jihat shundaki, unda siyosiy ahamiyat kasb etuvchi musiqiy tadbirlarni o`tkazish keng qo`llaniladi. “Navro`z”, “Mustaqillik”, kuylarida foydalaniladigan musiqiy asarlar (Muhammad Yusuf qalamiga mansub, xalq bo`l elim, “Vatan” “Xech, kimga bermaymiz seni O`zbekiston”) da milliy istiqlol g`oyalari bosh mavzu hisoblanadi.

Men dunyoni nima qildim  
O`zing yorug` jaxonim,  
O`zim xoqon, o`zim sulton,  
Sen tahti sulaymonim.

Yolg`izim, yagonam deymi,  
Talpingan koshonam deymi,  
O`zing mening ulug`lardan,  
Ulug`imsan, vatanim.....

Shuning uchun ham bu asarlarni o`quvchilar tomonidan o`rganilishi ularni milliy istiqlol g`oyalari asosida tarbiyalashning samarli vositasidir.

O`zbek xalqi musiqasi talqinining muhim vositalari o`zbek milliy cholg`u sozlari bo`lib, “musiqqa madaniyati” darslarida undan keng foydalanish



imkoniyatini yaratadi. Darslarda milliy cholg`ularning kelib chiqish tarixi, ijrochilik imkoniyatlari, tembr xususiyatlarini to`la-to`kis ochib berish, ular orqali milliy musiqa lad va ohanglari, ritm xususiyatlari kabi ma'lumotlar berish milliy musiqa tabiatini to`g`ri eshitishga o`rgatadi.

Maktablarda darsni tinglayotgan asarlarning g`oyaviy mazmuniga alohida e'tibor qaratish lozim. Asarlarining g`oyaviy mazmuni, obrazlari, xarakter xaqidagi tushunchalar asar o`zlashtirilishida avval tanishtiriladi. Agar mohiyati, tuzilishi, undagi ifoda vositalari, emotsional holat o`quvchi ruhiyatiga ta'sir ko`rsatadi. Jamoa bo`lib olib boriladigan bayram, g`oyaviy-siyosiy tadbirlar, konkurslar o`quvchilar imkoniyatlarini amalda ko`rsatish, egallash bilim va malakalariga baho berish va nazorat qilib turishga zamin yaratadi. Hulosa qilib aytganda, musiqaning o`smirlarda ham musiqiy –nazariy, ham estetik, ham milliy istiqlol g`oyalari haqidagi bilimlarni shakllantirishdagi roli beqiyos.

Badiiy vositalardan, xususan, milliy musiqiy merosimizdan, an'analarimizdan, vatanni madh etuvchi qo`shiq kuylashimizdan unumli foydalanish sharoitida ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

O`quvchilarda milliy g`ururni shakllantirish va takomillashtirish hozirgi kunda alohida e'tibor qaratiladigan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Zero millatni milliy g`ururni yuksaltirish orqali vatanga uning istiqboliga sadoqat, ishonch tuyg`ularini tarbiyalash imkoniyatlari katta.

O`quvchilarda milliy iqtixor va milliy g`ururni tarkib toptirish va takomillashtirishda ayniqsa ma'naviy yuksak qadriyatlarga ega bo`lgan o`zbek xalqining madaniy meroslaridan bo`lgan kuy va qo`shiqlardan foydalanish alohida ahamiyatga molik. Umumiy o`rta ta'lim maktabi o`quvchilari ongiga milliy g`urur tushunchasini singdirishda “Musiqqa madaniyati” fani dasturiga kiritilgan rang barang qo`shiqlarning ahamiyati kattadir.

Har bir o`quv yili, O`zbekiston davlat madhiyasini tinglash orqali o`quvchilarda ulug`vor, tantanali ohangda jaranglar O`zbekiston davlat madhiyasi qalblarni junbushga keltiradi.

“Musiqqa madaniyati” darslarida O`zbekiston davlat madhiyasini tinglash va tahlil qilishga, tabiiyki, boshqa o`quv fanlariga nisbatan ko`proq e'tibor qaratiladi.

Umumta`lim maktabining har bir bosqichi o`qituvchi oldiga bir qator vazifalarni qo`yadi. O`qituvchi o`z imkoniyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda, umumdidaktik metodlardan foydalanishi, bosqichlararo uzluksizlikni ta`minlashi, turli xil metodlardan unumli foydalanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llashi kerak. Uzluksiz ta`limning ayrim bosqichlarini o`zaro aloqadorlikda o`rganish muhimdir. Chunki o`rganadigan mavzulari, bolalarning yosh xususiyatlari, o`zlashtirish qobiliyatlari bu sinflarda deyarli bir xil bo`ladi. SHuning uchun ham 5-6-sinflarni uzviy holda o`rganish mumkin. 4-sinfda boshlang`ich maktabning tugaganligini hisobga oladigan bo`lsak, 5-sinfda bolalar bevosita yangi bosqichga, ya`ni o`rta ta`lim tizimining boshlang`ich bosqichiga o`tadilar. Bu sinfda barcha fanlar bo`yicha o`qituvchilarning o`zgarishi, sinf rahbarining o`zgarishi o`quvchilarning yangi sharoitlarga ko`nikishini talab qiladi. Bu jarayon ayrim o`quvchilarga qiyinchiliklar tug`diradi.

5-6-sinf o`quvchilarining yosh xususiyatlariga umumiy xarakteristika Pedagogik-psixologik adabiyotlardan ma`lumki, bu yosh o`smirlik davriga to`g`ri keladi. O`smirlik davri chegaralari taxminan 5-8-sinfiga to`g`ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo`lgan davrni qamrab oladi, lekin o`smirlik yoshiga o`tish 5-sinfga o`tish bilan mos tushmasligi va bir yil oldin yoki keyin sodir bo`lishi ham mumkin. O`smirlik davri «o`tish», «keskin o`zgaruvchan», «mushkul», «qiyin» davr deb ham nomlanadi. O`quvchilarda bu yoshda sodir bo`ladigan rivojlanish jarayonlarining murakkab va muhimligi qayd etish joiz. Bu hayotning bir davridan boshqasiga o`tish bilan bog`liq. Inson rivojlanishining barcha yo`nalishlari bo`yicha (jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy, ijtimoiy) katta sifat va miqdoriy o`zgarishlar ro`y beradi. O`smir shaxsi rivojlanishning muhim omili – uning shaxsiy faolligi–shaxsiyat omilidir. Bu davrda o`smirning o`z-o`zini anglashi jarayoni faol va mashaqqatli kechadi. O`smirning yoshidagi muhim o`zgarishlar uning organizmidagi jismoniy o`sish va biologik voyaga etish bilan bog`liqdir. O`smirlar bilimdon va talabchan, lekin materialni qiziqarli va aniq

tushuntirib beradigan, darsni bir me`yorda tashkil eta oladigan, unga jalb qila oladigan, darsni har bir o`quvchi uchun maksimal darajada unumli eta oladigan adolatli, oqko`ngil va madaniyatli o`qituvchilarni yoqtiradilar. O`smir organizmi o`shidagi sakrashlar, endokrin tizimdagi o`zgarishlar, gipofiz faoliyatidagi faollik, jinsiy voyaga etish, yurak, mushak, butun organizmning mustahkamlanishi insonning psixik, aqliy va ruhiy o`shida muhim o`zgarishlarga olib keladi. Musiqiy tarbiyada bu yosh ovoz apparatining mutatsiyasi davri bilan bog`liq. Ovoz apparati yo`g`onlashadi, ovoz ayniqsa, o`g`il bolalarda sezilarli darajada pastroq bo`lib boradi. Shuningdek, ovozning buzilish holatlari ham shu davrga xosdir. Bu yoshda ovoz apparatining haddan ortiq yuqori tessiturasidan qochib, vokal repertuari tanloviga ehtiyotkorona yondashish lozim. Endi mutatsiya xodisasiga batafsil to`xtalib o`tamiz. O`g`il bolalarda mutatsiyaning boshlanish davri, odatda jinsiy bolog`atga etish davriga to`g`ri keladi. Mutatsiyaning boshlanishi ko`p sabablarga bog`liq, juladan, iqlimga ham bog`liqdir. Mutatsiya davrida hiqildoq tez o`sadi. Ayniqsa qalqonsimon tog`ay juda kattalashadi. Boylamlar ikki barobar 13-14mm dan 24-25 mm gacha kattalashadi. Bu davrda hiqildoq kasallikka chalinuvchan bo`lib qoladi. Ovoz ehtiyot qilinmasa, hiqildoqda turli xil kasalliklar paydo bo`lishi mumkin.

Mutatsiyaning turi va davomiyligi hammada har xil kechadi. Bolalarda mutatsiyaning boshlanganligini o`z vaqtida payqash va vokal asarlarini to`g`ri tanlash o`ta muhim shartlardandir. Mutatsiya boshlanganligining dastlabki belgilari: ovozning nimjon bo`lib qolishi, intonatsiyaning buzilishi, qo`shiq aytish xohishining yo`qolishi, ovozning xirrilab qolishi. Mutatsiya hammada har xil, ayrim bolalarda engil, ayrim bolalarda esa og`ir kechadi. Bir me`yorda ovozning yo`g`onlashib borishi bu engil mutatsiyadan darak bersa, ovozning bir yo`g`onlashib, bir ingichka yangrashi, gohida ovozning chiqmay qolishi og`ir mutatsiya belgilaridir. Kuztishlarga ko`ra ko`pincha, diskant ovozlari basga, albt ovozlari tenorga aylanadi. Qizlarda ham mutatsiya davri bo`lib o`tadi. Biroq ularda mutatsiya o`g`il bolalarnikidek sezilarli o`tmaydi. Qizlarda mutatsiya bilinmay, juda sekin o`tganligi tuffayli ularning ovoz o`zgarishlarini payqash mushkul. Bu

davrda og'ir kuylarni kuylashga berish yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ovozni haddan tashqari zo'riqtirib qo'yish natijasida, qizlarning ovoz paylarida bog'lam, tugunchalar paydo bo'lishi va keyinchalik mulaqo ovozning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

O'qituvchi mutatsiyaning har xil – sezilarli yoki sezilmasdan o'tishini hisobga olgan holda, o'quvchilarning ovoz apparatlarini zo'riqtirmay, ularga engil kuy va qo'shiqlarni berishi kerak. 5-6-sinfda qo'shiq kuylash faoliyati Qo'shiq kuylash faoliyati o'quvchilarda melodik, garmonik eshituv, ladni his etish, sof intonatsiya kabi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. ovoz apparati o'smir organizmida kechayotgan jarayonlar tufayli o'zgaradi. Jismoniy o'sish ham ovoz apparatining o'sishi ham ravonligini yo'qotib, notekis ravishda shakllanadi. Budaavrda mutatsiya davom etadi. Shuning uchun ham ularga ovoz diapazoni keng, baland dinamikadagi asarlarni kuylash tavsiya etilmaydi. O'quvchilar qo'shiqlarni past-yarim ovozda baqirmasdan, ehtiyotkorlik bilan kuylashlari kerak. Bu sinf o'quvchilari bilan bir ovozli qo'shiqlar bilan birga ikki ovozli qo'shiqlar ustida ham ish olib boriladi. Buning uchun kichik hajmdagi kanonlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Qo'shiqlar o'rtacha sur'atda yozilgan bo'lishi, katta intervallarga sakrashlarning bo'lmasligi bu davrda muhim ahamiyat kasb etadi. 5-6-sinfda musiqa tinglash faoliyati musiqiy asarni tinglash jarayonida o'quvchilarga asarni tinchlikni saqlagan holda, gaplashmay madaniyatli tinglash odobini o'rgatish muhimdir. Asar boshidan oxirigacha ifodali, badiiy ijroda magnit tasma yoki o'qituvchining jonli ijrosi orqali eshittiriladi. Musiqa yangrashi bilan barcha sinfdagilar, jumladan o'qituvchining o'zi ham berilgan holda, barcha ishlarini chetga surib diqqat bilan tinglashi kerak. Bu yoshdagi o'quvchilar murakkab ichki dunyo, his-tuyg'ular, ichki kechinmalarga boy, muhabbat mavzularidagi, qahramonlik ruhidagi, tragediya va satira kabi janrlardagi musiqiy asarlarni bajonudil kuylaydilar. O'smirlar hissiyotga beriluvchan, ta'sirchan bo'lganligi sababli, chuqur falsafiy g'oyalar bilan sug'orilgan, orzu va baxt-saodat uchun kurash, ilk muhabbat kechinmalari, sog'inch kabi insoniy his-tuyg'ular ifodalangan musiqa ularga kuchli hissiy ta'sir o'tkazadi v jiddiy mushohada

qilishga undaydi. Beshinchi sinfda o`quvchilarning musiqiy dramaturgiya haqidagi tushunchalarni rivojlantirish va tasavvurlarini uyg`otish muhim vazifadir. “Musiqi madaniyati” dasturiga kirgan buyuk g`oyalarni aks etuvchi T.Qurbonovning “Shiroq” baleti, U.Musaevning “To`maris” baleti, T.Jalilovning “Tohir va Zuhra” operasi, S.Yudakovning “Mirzacho`l” vokal-simfonik syuitasi, L.Betxovenning “Qahramonlik”, A.Motsartning 40-simfoniyasini tinglab idrok etish jarayonida, o`quvchilar bu asarlardagi aniq ifodalangan musiqiy obrazlar va ularning to`qnashuvlari, ziddiyatlari, motivlar kurashi, dramatik rivojlanishlar haqida tushunchaga ega bo`ladilar.

### **2.3. Umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar hayotidagi ahamiyati.**

#### **(Xofizlik odobi misolida)**

Ashulachilik malakalari ana shunday ko'plab elementlarni odat tusiga kiritish orqali yuzaga keladi. Shunday xususiyatlardan biri unli tovushlarni shakllantirishidan iboratdir. Xalq qo'shiqlarini kuylash uslubida unililar o'ziga xos bir oz ochiqroq tarzda kuylanadi. Bo'lajak bakalavrlarni tayyorlashda xalq uslubida ham qo'shiqlarni pardali qilib, madaniylashtirib kuylashga o'rgatish muham ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa «a», «e», «i», «o», «u», «o'» xarflarining talaffuzi ustida tinmay ish olib borish natijasida ularga unli harflarni to'g'ri, madaniyatli qilib kuylash malakalarini singdirish mumkin bo'ladi. Talabalar bu malakani o'zlarida shakllantirib olishlari uchun unililar talaffuzi har doim kuylaganlarida ularning diqqat-e'tiborida, qat'iy nazoratda bo'lishi kerak. Ana shundagina bora-bora ular unililarni xaddan tashqari ochiq kuylash madaniyatsizlik belgisi ekanligini seza boshlaydilar va unililarni to'g'ri kuylashga odatlanib boradilar.

Milliy ma'naviyat va ma'rifatimizni rivojlantirishda xalqimizning umrboqiy san'at tarixini keng tarzda yoritish, musiqa merosimizni o'rganish va san'at sevar xalqimizga yetkazish muxim o'rin tutadi. Ayniqsa, o'lmas merosimiz ustozdan-shogirdga o'tib kelgan xalq an'anaviy ijrochilik maktabi bu borada asosiy manba sanaladi.

Xalq maqom san'atiniig ulkan bilimdoni ustoz Yusuf qiziq Shakarjonov «milliy musiqa san'atimiz bamisoli bir daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buhoro, shoxlari Farg'onadir» deb, ta'rif bergan.

Ustozning bu gaplarida ulkan ma'no yotadi. Tarixni manbalarga, bilimdon ustoz san'atkorlarning fikriga hamda ilmiy tadqiqot yozuvlariga qaraganda, xalq musiqasida o'n ikki (duvozdax) mumtoz maqom rivojlanib kelgan bo'lib bu o'n ikki maqom xijriy yilning o'n ikki oyiga moslab ijro etilgan. Keyinchalik ushbu maqomlar to'rt faslga bo'linib, chor maqom tarkib topgan degan fikrlar ham mavjuddir. Kelajakda san'atshunos va tarixchi olimlarimizning ilmiy izlanishlari natijasida musiqiy merosimizning yangidan yangi qirralari ochiladi, albatta

xalqimiz bundan baxramand bo'lishiga ishonchimiz komil. O'tmishda nota yozuvi bo'lmaganligi sababli ustozdan-shogirdga, og'izdan-og'izga o'tib ijro etib kelingan «Shashmaqom»ni va boshqa mavjud xalq mumtoz qo'shiq va kuylarni notaga olishdek ishni ulug' san'atkor O'zbekiston Xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy o'z shogirdlari bilan olib borgan uzoq yillik sermashaqqat ijodiy izlanishlar natijasida amalga oshirdi.

Qadimdan hofizlik – muqaddas kasb sanalgan. Islom olamida muqaddas kitobimiz bo'lmish. «Qur'on» oyatlarini dilga jo qilib, uning zeri-zavarlari bilan yoddan ijro etgan allomalarni «Hofizi Qur'on» deb yuritganlar. Mumtoz ustoz hofizlarimiz islom nazariy bilim samaralaridan hamda badiiy she'riyatdan mukammal xabardor bo'lganlar. Ular ijro etgan qo'shiqlar nixoyatda ta'sirchan bo'lib, tinglovchi va barcha tomoshabinlarni o'zlariga rom etaolgan. Ularni ulug' shoirlarimizning beqiyos ma'noga ega bo'lgan g'azallarini kuyga solib ijro etgan qo'shiqlari uchun «Hofiz» degan nomga musharraf bo'lishi ham qandaydir ramziy ma'no kasb etishi tabiiydir.

O'sha davrda nota yozuvi rivojlanmagan bo'lib, ovrupa musiqa terminlari o'rnida hofizlarimiz ovoz maromiga qarab, «Gulligi», «Binnigi», «Shikami», «Xonaqoxiy» deb atalmish ijro yo'llaridan foydalanishgan. O'sha davr hofizlarining ovozlari o'ktam (dramatik) baquvvat (lirik tenor) bo'lganligi uchun ular ko'proq «Shikami» yo'lida ijro etganlar. Bu yo'lda ijro etish g'oyatda murakkab bo'lib, shinavandalar tomonidan juda qadrlangan. Chunki hofiz tovushni ichkaridan tejamkorlik bilan qorin bo'shlig'idan chiqarib qo'shiq aytadi. Shuning uchun ham, «Shikami» yo'li chuqur nafas olshga asoslangan, tipikligi hamda jarangdorligi bilan «Gulligi», «Binnigi» kabi ashaula yo'llaridan farq qiladi. Ustoz hofizlar uz ijrochilik maxoratlarinn oshirish uchun aks-sado beruvchi maxsus gumbazli binolarda mashg'ulot o'tkazganlar, shu tariqa ovozlari ga sayqal berishgan. «Shikami» yo'lidan tashqari farq qiluvchi ikkinchi «Xonaqoxiy» yo'li bo'lib bunda hofiz qo'shiq so'zlarini aniq talaffuz etib tinglovchiga g'azal mazmunini ifodali qilib yetkazgan.

Ustoz hofizlarimizni kuylagan dasturidan har xil marosimlarda ijro etiladigan qo'shiqlar ham o'rin olgan. Masalan, Sodirxon hofiz motam marosimlarida kuylanadigan qo'shiqlarni, sozsiz ikki kaftini qulog'iga qo'ygani holda, alamli «Yakka faryod» tarzida «Xonaqoxiy» yo'lda ijro etib kelgan. Musiqashunos olim Sherali Sokinning ma'lumotlariga qaraganda Sodirxon hofiz o'z ashulalarini yil fasllari va xatto kunning ma'lum paytlariga ko'ra tanlab aytan. Bahor tonglarida «Amin nasrullohi», «Qiyiq», «Qora tong», peshindan keyin, «Guliyorishaxnoz» kechqurun «Sarparda», «Rok baland», «Dilxiroj», va boshqalarni kuylagan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng milliy mafkuramizni yaratish, Xalqimizning bebaho ma'naviy boyligi sanalmish musiqa merosimimizni o'rganish muxim o'rin tutadi. O'lkamizda ijrochilik san'atining murakkab turkumlari avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. An'anaviy ijrochilikda hofizlik muqaddas kasb sanalib, Xalqimiz o'z hofizlarini hamisha ardoqlab kelgan. O'tgan asrning ikkinchi yarmida, asrimizning boshlarida va o'rtalarida an'anaviy qo'shiqchiligimizni butun bir avlodi tarkib topdi.

Oliygoxlarda ta'lim-tarbiya olayotgan iste'dodli, ijodkor va tashabbuskor yoshlar istiqloлга erishgan yurtimizni - dunyodagi eng qudratli, nufuzli maktablar qatoriga olib chiqishda o'z ulushlarini qo'shishlari kerak.

Yuqorida aytilgan nazariy fikrlardan kelib chiqqan holda, biz o'quvchilar ma'naviy qiyofasi quyidagi fazilatlardan tarkib topishi mumkin deb hisoblaymiz.

1) Vatanparvarlik. O'z Vatanining mustaqilligini asrab avaylash, uning yo'lida fidokorona mehnat qilish, Vatan ximoyasiga tayyor bo'lish, Vatan tarixi va madaniyatini bilish, o'z Vatani bilan faxrlanish.

2) Odob- ahloqli bo'lish. Salom-alik odobini bilish, kattalarga xurmat munosabatida bo'lish, tengdoshlariga samimiy munosabatni namoyon qilish.

3) Xushmuomala bo'lish. Kishilar bilan muloqot qilish odobi, turli vaziyatlarda o'z xushmuomalaligi bilan muammolarni xal qila olish.

4) Mehnatsevarlik. Oldiga quyilgan maqsadga erishish yo'lida bor kuchi va imkoniyatini ayamaslik, jamoat ishlarida faol ishtirok etish.



5) Insoniylik. Ota-onani e'zozlash, kattalarga va ayollarga xurmat ko'rsatish, yordamga muxtojlariga ixtiyoriy ravishda ko'maklashish, insonparvarlikka qarshi bo'lgan xatti-harakatlarga murosasiz bo'lish.

6) Jonkuyarlik. O'z manfaatlarini ko'zlamagan holda boshqalarga yordam qo'lini cho'zish, barcha ishlarga sidqidildan yondashish va kuchini ayamasklik.

7) Do'stlik. Do'stlik va oshnolikni ajratish, o'z do'sti uchun jonini ham ayamasklik va unga yordam berish, do'stlik rishtalarini umrining oxirigacha uzsmasklik.

8) Kamtarlik. «Kamtarga kamol» maqoliga rioya qilish, o'z bilimi, kuch imkoniyatlarini ko'z-ko'z qilmaslik, o'z ustida ishlash, o'z bilimi va imkoniyatlarini kengaytirish.

9) Ma'naviy boylik – O'zbek xalqining urf-odatlarini madaniyati, san'ati, yozuvi va yodgorliklariga xurmatda bo'lish, ularni arsab-avaylash ularning tarixini bilish va boyitishga o'z xissasini qo'shish.

10) Intizomlilik. Jamiyat qonun - qoidalarga rioya qilish, kattalar buyurgan ishni tez va aniq bajarish, jamoada intizomni yuksak darajada bo'lishi uchun kurashish.

11) Faollik. Tashbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon qilish, optimist, ya'ni kelajagi porloq ekanligiga ishonish va unga qarab o'z xatti-harakatlari bilan intilish.

12) Maqsad sari intilish. Aniq, katta ishlarni bajarishni maqsad qilib qo'yish; shu maqsadini amalga oshirish uchun kat'iyatli, o'z ideali va dunyoqarashiga sodiq qolish.

13) Baynalmilallik. O'z xalqi va boshqa xalqlarning tarixi, san'ati va madaniyatiga yashash tarziga qiziqish, baynalmilal xarakterdagi tadbirlarda ishtirok etish, o'zga mamlakatlarning mehnatkash xalqiga qardoshlarcha yordam tadbirlarida qo'ldan kelganicha qatnashish.

14) Rostguylik. So'zi bilan ish birligi, to'g'riso'zlik, o'z xatolari va qilmishlarini ixtiyoriy tan olish.

15) Ishbilarmon, tadbirkor bo'lish. Iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, hayotga tadbirona munosabatni ko'rsata olish.

16) Oilani mustaxkam, saqlash ruxida tarbiyalanish, oila jamiyatning negizi ekanligini anglash. Oilaviy munosabatlar haqida bilmga ega bo'lish.

17) Or-nomusli bo'lish. Qilgan salbiy xatti harakatlarni tan olish. Ularni to'g'rilashga harakat qilish. O'z o'zini nazorat qilishni shakllantirish.

18) Sog'lom, jismonan yetuklikka intilish. Sport to'garaklariga qatnashish.

19) Mas'uliyatni xis etish. Ijtimoiy burchni anglash. Jamiyat, Vatan, oila, maktab, do'stalar oldidagi mas'uliyatni anglash.

20) Vijdonlilik. Birovning xaqiga xiyonat qilmaslik. Vijdon azobida yonmaslik uchun yuqoridagi fazilatlarni o'zida shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan mezonlarni o'zida mujassamlashtirgan o'quvchigina «Ma'naviy yetuk» shaxs deb qabul qilinishi mumkin.

Hofizlik san'ati qadimdan muqaddas kasb sanalib, avlodlardan avlodga, ustozdan shogirdga an'ana sifatida o'tib kelgan. Shuning uchun ustozga nisbatan xurmat va ahloqiy odob hofizlikning asosiy qoidasi, hamda majburiy talabi sanaladi. Umuman san'atkorlar, shoirlar, ilm axllari, bir-birlariga bo'lgan munosabatga, shaxsiy ijodlari va qolaversa o'z shogirdlariga xurmat bilan qarashgan, hamda «Ustoz otangdek ulug'» deyilgan xalq iborasiga doim amal qilishgan. Ma'lumki g'azal bilan kuyning hamohangligidan qo'shiq yaraladi. Varaqlarga bitilgan jonsiz so'zlarga musiqiy ohangdan qanot bag'ishlanadi, natijada umrboqiy qo'shiqlar dunyoga keladi. Shuning uchun ustoz hofizlar she'riyatdan yaxshi xabardor bo'lganlar, qo'shiqni ijro etishda g'azalning vazniga, mazmuniga, uning talaffuziga katta e'tibor berganlar. Ularning ta'kidlashicha shunday g'azallar borki uning qofiyasi, yoki biron so'zi, xatto bir harf almashib qolsa g'azal ma'nosi buzilib ketar ekan. Ijrochi hofizlarning sinchkovliklari natijasida xalqimiz o'rtasida yuzlab umrboqiy qo'shiqlar dunyoga kelgan va ular hozirgacha sevib kuylanib kelinmokda.

Yosh ijrochi hofizlarning diqqatini yana bir narsaga jalb qilishlik zaruriy bo'lib, bir vaqtda qo'shiqlarni faqat dars jarayonida qo'llabgina qolmay o'rgangan

qo'shiqlarini saxnada tomoshabin ishtirokida ijro etishga e'tibor berish katta ahamiyatga ega.

An'anaviy qo'shiqlarimizning avvaldan xalqimiz orasida ardoqlanib, og'izdan-og'izga o'tib kuylanib kelinganligi va ular katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini bilamiz. Mumtoz qo'shiqlarimiz milliy tafakkurni ma'naviy kamol toptirishda asosiy vosita deb sanalgan. Xalqning og'ir kunlarida ham, shodlik, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq insonga doimo hamrox bo'lib ijro etilib kelingan. G'ofur G'ulom aytganidek, san'at, qo'shiq, insonlarning teng yarmi yuragi, jonidir.

Shunday qilib milliy mafkuramiz yaratilayotgan davrda an'anaviy ijrodagi qo'shiqlarimizning o'rni beqiyosdir. Mumtoz qo'shiqlarimiz odamlarni iymonga, e'tikodga, sof muhabbatga, sadoqatlik bo'lishga, da'vat etadi, farzandlarimizni bog'cha, maktab yoshidan boshlab shu ruxda tarbiyalashga chorlaydi, zeroki bunday ahloqiy, ma'rifiy ishlar bugungi olib borilayotgan mafkuramizning asosiy maqsadidir. Milliy-an'anaviy mumtoz qo'shiqlarimiz shu maqsad yo'lida xizmat qilishni muqarrardir.

Yosh hofizlar o'z ijrosida amal qilishi kerak bo'lgan ayrim qoidalar:

- hofizlik odobi va xulqi asosiy ahloqiy omil;
- an'anaviy qo'shiqchilik ijro yo'llari, nafas olish va chiqarish uslublarining zarurati;
- qo'shiq so'zlarini to'g'ri talaffuz qilish va g'azal ma'nosidagi g'oyaviy badiiylikni ko'ra bilgan hamda chuqur tushungan holdagina ijroga kirish;
- ijrochi hofizning ovoz qamrovi (diapazoni)ga tayangan holda qiziqishi, qobiliyati va xoxishiga qarab qo'shiq tanlash;
- ijrochi hofizlar an'anaviy qo'shiqlarni ijro etganda ijroda o'z ijrochilik uslubiga ega bo'lishga e'tiborini qaratishi zarurligi;
- darsda ijro etgan qo'shiqlarni konsertlarda ijro etish bilan tinglovchilarning xulosa, fikr va muloxazalariga e'tiborni qaratish;
- an'anaviy ijrodagi qo'shiqlarni yosh avlodning ma'naviy kamol toptirishdagi tarbiyaviy ahamiyatiga e'tiborni kuchaytirish va shunga o'xshash

yana bir qancha muxim bo‘lgan shart hamda talablar bo‘lg‘usi ijrochi-hofizning va bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarini kasbiy vazifasi bo‘lib xizmat qiladi.

Bu borada ustoz-o‘qituvchilar uslubiy hamda kasbiy tajribalariga tayangan holda bo‘lg‘usi yosh hofizlarimizning ijodiy barkamolligiga o‘z xissalarini qo‘shadilar.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi milliy qadriyatlarimizni tiklashga, xalqimiz ma'naviyatini ko‘tarishga, shaxs tarbiyasi va inson kamoloti ishiga har qachongidan ham ko‘proq e'tibor berish imkoniyatlarini ochib berdi.

Xech biri sir emaski, jamiyatning kelajagi yoshlar bilan. Yosh avlodga dunyoviy ilmlarni chuqur singdirish, kasbga tayyorlash bilan bir qatorda ularni baodob, xushxulq shirin so‘z kamtar va eng muximi yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash aloxida ahamiyat kasb etadi.

Yurtboshimiz mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ulkan o‘zgarishlarning ildizi, birinchi navbatda xalqimizning ma'naviy uyg‘onishida ekanligini ta'kidlashi ham bejiz emas. Zero, ma'naviyatni yuksaltirish insonning insoniyligini yuksaltirish, uning ijodkorlik va bunyodkorlik saloxiyatini ruyobga chiqarish demakdir.

Respublikamizda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy- demokratik o‘zgarishlar milliy istiqlol g‘oyasi va barkamol avlodni tarbiyalashning muxim ahamiyatlaridan biri milliy qadriyatlarimizga xurmat sadoqat Farg‘ona vodiysi hofizlari hayotini chuqur o‘rganish va ularga xurmat bilan qarashdir. Buni amalga oshirishda xalq an'analari va ular bilan bevosita bog‘lagan xalq qo‘shiqalari aloxida o‘rin egallaydi. Farg‘ona vodiysi hofizlari hayoti va ijodini o‘rganish inson kamolotida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek xalq an'analari va xususan Farg‘ona vodiysi hofizlari yaratgan qo‘shiqalar qolaversa musiqa san'ati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan an'analari bo‘lajak bakalavrlarni Ona Vatanga sadoqat ruxida tarbiyalashning muxim vositasi hisoblanadi. Farg‘ona vodiysi hofizlari hayoti orqali bo‘lajak bakalavrlarni tarbiyalashning eng muxim shartlaridan biri bizga ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan o‘zbekona yuksak insonparvarlik xususiyati do‘stlarga sadoqat xislari

Vatanga boʻlgan muhabbat, mehnatga boʻlgan munosabat va oʻz oriyati, nomusi, vijdonini pokiza saqlash yuksak ahloqiy xususiyatlardan iborat.

Xalqimizning milliy qoʻshiqlarini oʻzbekona ohangda bezaklar bilan boyitish, «nola», «qochirim», «xonish», «nolish», «salmoq» tarzidagi ohanglarda foydalanib kuylash muxim oʻrin tutadi. Usta shogird anʼanalari kadimdan odat tusiga kirib kelgan oʻziga xos yoʻnalishdir. U hozirgi kunda yangicha talqin mazmun kasb etgan. Fargʻona vodiysi hofizlari hayoti va ijodini oʻrganish kishiga koʻtarinkilik bagʻishlaydi. Ularning olib borgan ishlari ijro etgan kuy va qoʻshiqlari insonni faqat ezgulikka yaxshilikka yetaklaydi. Nafaqat ularning ijod yoʻllari balki oiladagi jamoadagi mahalladagi oʻrinlari ham bekiyosdir. Qolaversa Fargʻona vodiysi hofizlarining hayoti va ijodi Oʻzbekistonda usta- shogird anʼanalarini va anʼanaviy ijrochilik sanʼatini rivojlanishida ham katta oʻrin tutadi.

## XULOSA

Jamiyatimizda ma'naviy yangilanishlar, yuksalishlar jadal kechayotgan, qolaversa, globallashuv jarayoni qadriyatlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatib turgan bir paytda, yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy merosimizga asoslangan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, uyg'un holda saqlab qolish, ruvojlantirish hamda kelgusi avlodlarga yetkazib berish asosiy vazifaga aylangan. Zero, "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'- e'tibori avvalambor farzandlarimizning unid-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir".

Ma'naviy meros – yoshlarda o'zlikni va o'tmishdan faxrlanish tuyg'ularini shakllantiradi. Buning yaqqol ne-ne daholarni, qahramonlarni, chinakam millatsevar, vatanparvarlarni, bir so'z bilan aytganda, dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan munavvar zotlarni kamolga yetkazgan xalqimizning yaqin o'tmishida ko'rishimiz mshmk. Buyuk, o'lmas qadriyatlarning yaratuvchisi, ijodkori bo'lgan, ayni bir paytda, uni avdoddan –avlodga gard yuqtirmay, mo'tabar qilib yetkazib kelayotgan xalqimiz, nihoyat uzoq davom etgan istibdod zanjiridan qutildi. Eng muhimi, asrlar mobaynida shakllangan, sayqallangan, milliy qadriyatlarga bugungi kunda yegalik qilmoqdamiz. Usta-shogirdlik an'analari ustoz oldiga ham, shogird oldiga ham, katta mas'uliyat yuklaydi. Usta-shogirdlik an'anasi faqat hofizlar orasida emas, balki sozandalar, bastakorlar orasida ham, xatto oddiy xat-savod o'rgatish borasida ham keng qo'llanib kelingan. Odatda ota o'z farzandini ustozga shogirdlikka berar ekan, taomil bo'yicha: «Suyagi meniki, eti sizniki» degan iborani ishlatganlar. Bu so'z orqali ustoz har qancha qattiqqo'l bo'lmasin, shogird uning aytganlarini so'zsiz va bekamu-ko'st bajarishi lozim, degan mazmunni bildiradi. Shogird-ustozdan nafaqat ilm-hunar o'rganish, balki sharqona urf-odatlar, mulozamat va muloqotni, ahloq-odobni ham o'rganishi nazarda tutiladi. Ba'zi shogirdlar ustozining uyida yashab, uning xizmatini ham qilib turar edi. Ota-ona esa unga ketadigan sarf-harajatini va ustozga beriladigan xaqni o'z zimmasiga olar edi.

Xozirgi kun urf-odatiga ko'ra usta-shogirdlik an'anasi o'ziga xos yunalishda rivojlanmoqda. Xozirgi kun talabi va etikasi ilgari talablardan tubdan farq qiladi. Shogirdlarni ustozga so'zsiz bo'ysundiruvchi manqurtlarcha emas balki mustaqil fikrlaydigan yetuk shaxslarga aylanitirish maqsad qilib olingan.

Ko'pchilik holatda odatlar va an'analar terminlari mazmuni bir narsa deb qaraladi va ularning farqiga borilmaydi. Ular o'rtasida ma'lum umumiylik bo'lgani kabi bir-birlaridan farq

qilinadigan tomonlari ham mavjud.

Musiqasi san'ati kishiga butun bir yuksak tuyg'ular, zavq-shavq, yangi g'oyalar olamini ochib beradi. Odamlarni ma'naviy jixatdan boy, sof va barkamol qiladi. Musiqasi tufayli inson o'zida yangi, ilgari sezmagani kuch topadi, hayotga o'zgacha munosabatda bo'ladi. Musiqasi insonni hayotni sevishga da'vat etadi. Bir so'z bilan aytganda, inson o'z hayotini, turmush tarzi va borlig'ini musiqasi san'atisiz tasavvur etolmaydi. Musiqasi va qo'shiqning inson hayotida bu qadar keng o'rin olishi, uzoq yashashi, takomillashib, mazmungan bo'yib va chuqurlashib borishining sabablari bor, albatta. Chunki qo'shiq insonni mehnat qilishga qiyinchiliklarni yengishga, ruxan tetik, bardam bo'lishga, hayotga ishonch bilan qarashga undaydi. Kindik qoni tukilgan ona Vatanni sevishga, uning barcha boyliklari bilan faxrlanishga da'vat etadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan bo'lgan mexr-muhabbat, faxr-iftixorning shakllanishi va rivojlanishi ham ma'lum darajada unga bog'liq. Har qanday davlatning madaniyati, ijtimoiy ongining balandligi shu xalqning ruxiy sog'lomligi, aqliy quvvati va yuqori darajadagi tarbiyasi bilan belgilanadi. Agar davlat yosh avlodning ta'lim - tarbiyasiga panja orasidan qarsa, unga sarflaydigan mablag'ni iqtisod qilib, boshqa tashvishlarga sarflasa, bu hol jamiyatni so'zsiz inqirozga olib boradi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar darajasida gullab-yashnatishning chuqur, ilmiy asoslangan yunalishini ko'rsatib berdi. Tanlangan yo'lni to'g'ri va xaqqoniy ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Mamlakatimiz taraqqiyotidagi ijobiy siljishlar mustaqil Respublikamizning

«Kelajagi buyuk davlat» sifatida qudrati va saloxiyatini qadamba - qadam namoyish etmokda. Zero yoshlari bilimli yurtning kelajagi buyuk bo'lishiga ishonamiz.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O'zbekistan 1997 y. 63 b.
2. I.A.Karimov, bizdan ozod va obod vatan qolsin. Ilmu-fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin. T.: O'zbekistan 1996 y. 261 b.
3. I.A.Karimov. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin.» «Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga javoblar 1998 y. 2- son.
4. I.A.Karimov. Olloh qalbimizda yuragimizda. T.: O'zbekiston nashriyoti. 1999 y.
5. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblari. T.: O'zbekistan 2000 y.
6. I.A.Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekistan 1992 y. 786.
7. I.A.Karimov. Milliy davlatchilik istiqlol mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. T.Tojixonov, A.Saidov. T.: Uz.R.I.I.V.Akadem. 1999 y. 673 b.
8. I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy iqtisod, siyosat, mafkura. I jild. T.: O'zbekiston 1996 y. 76 b.
9. I.A.Karimov. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. T.: O'zbekiston 1998 y. 2076.
10. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T.: O'zbekiston 1997 y. 325 b.
11. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi. "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblar. T.: O'zbekiston 2000 y. 32.
12. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: O'zbekistan 1998 y. 480 b.
13. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston 1992 y. 48 b.
14. O'zbekiston respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonun. «Ma'rifat» 1997 y.
15. Abu Nasr Farobiy «Fozil odamlar shahri». T.: G'.G'ulom. 1993 y.

16. Abu Rayxon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», T., 1968 y.
17. Abdulla Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud ahloq». T., Sharq, 1994 y.
18. Alisher Navoiy. «Mabub ul-qulub» T., 1987 y.
19. «Alpomish» T. Sharq. 1998 y.
20. Amir Temur. «Temur tuzuklari», T. G'.G'ulom. 1996 y.
21. BMTning Inson huquqlari deklaratsiyasi. T. Adolat, 1998 y.
22. Maxmud Xuja Bexbudiy. Tanlangan asarlar. T. Ma'naviyat, 2000 y.
23. Выготский L.S. Психология искусства. Изд. 20s isp, i dop. M.Iskustva 1968g. 576str.
24. Jaloliddin Manguberdi. T. Sharq, 1999 y.
25. Imom Ismoil Al-Buxoriy. Al-adab al mufrid. (Odob durdonalari) T.: O'zbekistan 1990 y. 179 b.
26. Imom Ismoil Al-Buxoriy. «Xadis» IV jildlik T. Qomuslar. 1992 y.
27. Konfutsiy «Uroki mudrosti» M. Nauka 1992 g.
28. Kondze J.G. Народные традиции как средство гербика патристического воспитания школьников. Автореферат. Dissertatsii. K.P.N.- Boku 1987 g. 17 str.
29. B.T.Lixochev. Teoriya i pedagogicheskaya pei-ya M.Prosvещenie 1964 g. 325 str.
30. I.S.Marnko Основы процесса провественного воспитания школьников M. Prosveshnenie 1980 g. 183 str.
31. U.Maxkamov. Ahloq-odob saboqlari. T. Fan. 1994 y. 135 b.
32. U.Max.kamov. O'quvchilarning ahloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. T. Fan, 1995 y. 199 b.
33. Mirzo Ulug'bek. «To'rt ulus tarixi» T. 1960 y.
34. O.Musurmonova. Oila-madaniyati milliy g'urur (o'quv qo'llanma) T. O'qituvchi. 1999 y. 200-b.
35. Mustaqillik: Izohli ilmiy ommabop lug'at. T. Sharq.. 1998 y. 336 b.
36. A.K.Munavvarov. Pedagogika. um. tax. ostida. T.: O'qituvchi. 1997 y. 232 b.

37. Muzayyana Alaviya «O‘zbek xalq. marosim qo‘shiqlari» T. Fan. 1974 y. 222 b.
38. S.Mannopov. Qo‘shiq. olami yulduzlari. Farg‘ona. T. 1996 y.
39. S.Mannopov. Oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlarining san‘at bo‘limlari uchun milliy an‘anaviy qo‘shiqchilik ixtisosligidan qo‘llanma dastur. Farg‘ona 1994 y.
40. S.Mannopov. Mumtoz hofizlar turkumi. Farg‘ona. 1994 y.
41. Nozik iboralar. Zamaxshariy T. «Kamalak» 1992 y.
42. Некоторые проблемы эстетического воспитания молодежи средствами изобразительного и музыкального искусства (sb. науч трудов) T. 1983 g. 124 str.
43. X.Po‘latov. Mustaqilligimiz qadriyatlari. O‘zbekiston milliy istiqlol mafkurasi. T.: O‘zbekiston 1999 y. 76 b.
44. J.Tulenov. Qadriyatlar falsafasi.
45. O.Hasanboeva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T. O‘qituvchi. 1992 y. 208 b.
46. O.Hasanboeva, J. Hasanboev, H.Homidov. Pedagogika tarixi: O‘quv qo‘llanma. T. O‘qituvchi. 1997 y. 248 b.
47. O.Safarov, M. Maxmudov. Oila ma‘naviyati. T. «Ma‘naviyat» 1998 y. 160 b.

## *MUNDARIJA*

Kirish.....	3 - 8
I.BOB. O‘quvchilarda milliy an‘analarni o‘zlashtirishga bo‘lgan zaruriyat.....	9
1.1. Musiqa madaniyati darslarida milliy-manaviy extiyojlarni aniklash.....	9-12
1.2.Musiqa orqali milliy-axlokiy fazilatlarni shakllantirish .....	13 - 16
1.3..Musiqaning inson va jamiyatdagi ahamiyati.....	17 - 19
II.BOB. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning nazariy- falsafiy masalalari .....	20
2.1.“Qadriyat”,” milliy qadriyat” va “umuminsoniy qadriyat” tushunchalarining nazariy-falsafiy tahlili.....	20 - 25
2.2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida. ....	26 - 31
3.3Umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar hayotidagi axamiyati. (Xofizlik odobi misolida) .....	32 - 39
Xulosa.....	40 - 42
Foydalangan adabiyotlar .....	43 - 45

